

Hech bir maktab yaxshi yoki yomonga ajratilmaydi

Har bir oilaning maktab yoshiga yetgan farzandini o'zi istiqomat qilayotgan mikrohudud-dagi maktabga berishi uchun imkoniyat yaratilib, o'g'il-qizlarning maktabga bepul joylashishi ka-folatlanmoqda.

3-bet

O'qituvchi nima deydi?

Televizioning qulog'ini burasangiz, kimdir yutug'idan xur-sand, yana kimdir kvartira yuta olmaganidan xafa. Hayron qo-lasan, kishi. Bolalarimiz, nabiralarimiz faqat yutuqli mahsulot-larga yopishgani yopishgan. Bolalar nari tursin, hatto kattalar ham "... ichdim, spark yutdim", deya yolg'on "shou"larning asi-riga aylanib bormoqda. Aslida hayotimiz yengil-yelpi hoy-u ha-vaslarga to'lib ketyapti. Bularga qachon chek qo'yilarkan?!

4-bet

"Devorlari ko'hnagina, oyvonchasi juda tor" bog'cha haqida

Yoxud bir she'r bilan mashhur bo'lgan Nishon tumanidagi 18-maktabgacha ta'lim muassasasiga "sayohat"

7-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 17-iyul, chorshanba № 55 (9224)

Xalq ziyolilari gazetasi



Qahramon Quronboyevga ochiq xat

15-bet

Abituriyent — 2019



Navbatdagi dovon — test jarayoni

Nihoyat qabul jarayoni ham o'z nihoyasiga yetdi. Bu yilgi jarayonning o'ziga xosligi shunda bo'ldiki, abituriyentlarga ilk bor uchta yo'nalishga hujjat topshirish imkoniyati berildi. Rasm, tibbiy ma'lumotnoma, papka, konvert kabi ortiqcha talablar qisqartirildi. Abituriyent faqat pasporti va diplomining aslini ko'rsatib, ro'yxatdan o'tgach, hujjatlarni o'zi bilan olib ketdi. Istalgan oliy o'quv yurti orqali o'zi istagan oliy ta'lim muassasasiga o'qishga topshirdi. Ya'ni Qoraqalpog'istonda turib Farg'onada joylashgan OTMga hujjat topshirish imkoniga ega bo'ldi.

O'tgan yili 814 ming 952 nafar abituriyent hujjat topshirgan bo'lsa, bu yil yurtimizdagi 60 ta oliy ta'lim muassasasi va ularning 30 ta filialiga 1 mln 66 ming 925 nafar abituriyentdan hujjatlar qabul qilindi. Bu o'tgan yildagiga nisbatan 30,91 foiz ko'p demakdir.

Kunduzgi ta'lim shakliga 718 097 nafar, kechki ta'lim shakliga 13 821 nafar, sirtqi ta'lim shakliga 335 007 nafar abituriyent ro'yxatdan o'tdi.

Tanlov ko'rsatkichi o'rtaicha bir o'ringa 10, 28 nafarni (birinchi oliy ta'lim muassasasi sifatida tanlaganlarga nisbatan) tashkil etdi (o'tgan yili bir o'ringa 8, 3 abituriyent to'g'ri kelgan edi).

Abituriyentlar 90 ta oliy ta'lim muassasasining qabul komissiyalari va 201 ta Davlat xizmatlari markazining 4 500 nafardan ortiq operatorlari to-monidan ro'yxatdan o'tkazildi.

4-bet



Mahmud Sa'diy fenomeni

Umrini millat ma'naviyatini yuksaltirishga bag'ishla-yotgan jurnalist, adabiyotshunos, tariximiz bilimdoni, kitob shaydosi, qattiqqo'l muharrir, qalbidaryo USTOZ, O'zbekis-ton Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, "Fidokoro-na xizmatlari uchun" ordeni, "Oltin qalam" xalqaro milliy mukofoti sovrindori Mahmud Sa'diy haqida "Qadr" nomli kitob yozilgan, unda taniqli olimlar, ijodkorlarning ko'plab maqolalari to'plangan, shuningdek, uning shaxsi, faoliyatiga oid qator telepublitsistik asarlar yaratilgan.

Lekin hayot va ijod chorrahalarida bu bag'rikeng inson bilan ro'para kelgan har bir kishining aytar so'zi, fikri bor. Kamina ham ularning qatorida.

Mahmud aka 1990-yili, ToshDU (hozirgi O'zMU) jurnalistika fakultetida talabalik chog'imda, meni "O'qituv-chilar gazetasi" (hozirgi "Ma'rifat")ga ishga joylashtirmoqchi bo'lgandi. Arzimas bir sabab bunga monelik qilgan. Shunda "Sen ham jontaqmisan?" deya so'ragani va bu gapning mohi-yatida nima borligini anglolmay, kalovlanib qolganim esim-da. Qisqasi, o'sha kunlari "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi musahhihi shtati bo'shligi bois bu o'rin Mahmud aka "tanka"ligida kaminaga nasib etgan.

8-9-betlar

Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!

Mustaqillikning qadriga yetish ham farz, ham qarz

Istiqlol yillarida mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Zero, tinch va osoyishta yurtga bayramlar yarashadi. Mustaqillik esa xalqimiz uchun eng ulug' va eng aziz bayramdir.

Prezidentimizning joriy yil 8-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori bilan tanishgach, bunga yana bir karra ishonch hosil qildim. Bu yilgi bayram tadbirlarining "Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!" degan shior ostida o'tkazilishida katta ma'no bor.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ilgari surilgan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, shuningdek, "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" Davlat dasturida barcha sohalar kabi ta'limga ham katta e'tibor qaratildi. Ayniq-

sa, umumiy o'rta ta'lim tizimini bugungi kun talablari asosida tashkil etish, farzandlarimizning har tomonlama kamol topishi uchun barcha sharoitlarni yaratish zarurligi qayd etildi.

Mustaqil mamlakatimizda iqtidorli bolalarni aniqlash, tanlash, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, o'qitish jarayoniga ilg'or texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan buniyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish

maqsadida 2018-yilning 15-16-noyabr kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi doirasida yuksak salohiyatli kadrlarni tarbiyalash maqsadida yurtimizning har bir hududida bittadan yangi tipdagi maktablar — Prezident maktablarini tashkil etishni, bu ishni Qoraqalpog'istondan, Nukus shahridan boshlashni taklif qilgan edi. Bugungi kunda maktab qurilishi ishlari jadal olib borilmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasida ushbu maktabda o'qish uchun hujjat topshirgan o'quvchilar soni har bir o'ringa 51 nafardan to'g'ri kelgani unga bo'lgan qiziqishning nechog'li yuqori ekanligidan dalolatdir.

Yoshlarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, ilm-fanni o'zlashtirishga bo'lgan rag'batini oshirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, jahon miqyosida

Vatanimiz dovrug'ini keng taratgan ajdodlarga munosib avlodni tarbiyalashda davlatimiz rahbarining joriy yil 3-maydagi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu qarorga muvofiq xalqaro olimpiadalar g'oliblari va ularni tayyorlagan o'qituvchilarning munosib rag'batlantirilishi yuksak e'tibor va g'amxo'rlik namunasidir.

Aytish joizki, mamlakatimizda barcha jabhalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar mustaqillik tufaylidir. Shu nuqtayi nazardan uni asrab-avaylash, unga munosib bo'lish, eng muhimi, qadriga yetish har birimiz uchun ham farz, ham qarzdur.

Aysuluv TAJIMURATOVA,
O'zbekiston Respublikasi
xalq o'qituvchisi.
O'ZA

Yuridik sohada professional o'qitish markazlari tashkil qilinmoqda

O'zbekiston Milliy matbuot markazida Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha professional o'qitish markazida tashkil etilgan kurslar va ularning yakuniga bag'ishlangan matbuot anjumani bo'lib o'tdi.

Prezidentimizning 2018-yil 13-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan Toshkent davlat yuridik universiteti huzurida Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha professional o'qitish markazi tashkil etildi.

2018-yilning 5–24-noyabr kunlari markaz tomonidan mamlakatimizda ilk marotaba tashkil etilgan professional o'qitish kurslariga davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining tegishli sohada faoliyat yurituvchi xodimlari, advokatlar va boshqa ixtiyoriy xohish bildirgan shaxslar qabul qilindi. Kurslarda dars mashg'ulotlarini olib borish uchun "White and Case", "Foley Hoag", "Dentons" va "Merritz" kabi dunyoga taniqli yuridik kompaniyalarning yuqori malakali advokatlari va amaliyotchi-mutaxassislari jalb etildi.

Kursni muvaffaqiyatli tugatgan tinglovchilar Adliya vazirligi tavsiyasiga binoan xorijiy yuridik kompaniyalar, xalqaro arbitraj institutlari va boshqa tegishli tashkilotlarda 2–3 oylik stajirovkaga yuborildi.

Joriy yilning 10-iyunidan 5-iyuliga qadar Xalqaro standartlar bo'yicha professional o'qitish markazida navbatdagi o'qitish kursi tashkil etildi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-iyundagi qarori bilan oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar yuridik mutaxassislikka qayta tayyorlash kurslari ham yo'lga qo'yildi.

Tinglovchilarni qabul qilish Toshkent davlat yuridik universiteti Kengashi to-

monidan belgilangan o'rinlarga muvofiq, to'lov-kontrakt asosida amalga oshirilib, 2019-yilning yanvar-iyun oylarida tashkil etilgan qayta tayyorlash kursining qabul kvotasi 100 tani, to'lov-kontrakt miqdori esa 7 million 500 ming so'mni tashkil etdi.

Hukumat qarori bilan tasdiqlangan nizom ilovasiga muvofiq oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarni yuridik mutaxassislikka qayta tayyorlash kurslariga faqatgina 47 soha bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hujjat topshirishi mumkin.

— Mamlakatimizda ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilmoqda, — deydi Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha professional o'qitish markazi direktori A.Yoqubov. — Bunday markazlarning tashkil etilishi, avvalo, fuqarolarimizning huquqiy ongini o'stirishga, davlatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ammo faoliyatim davomida bir muammo meni qiynaydi: markazga tahsil olishga kelgan o'quvchilarda ko'proq bugun qanaqadir yangilikka ega bo'lish, bilimni mustahkamlash emas, ularda kurs oxirida qaysidir manfaatlariga xizmat qiladigan diplomga tezroq ega bo'lish qiziqishi yuqoriroq. Biz bu noto'g'ri yondashuvni o'zgartirmas ekanmiz, oldimizdagi maqsadga erisha olmaymiz.

Kurslarni tugatgan va belgilangan namunadagi diplom olgan shaxslar davlat organlari va boshqa tashkilotlarning yuridik xizmatlarida ishlash huquqiga ega bo'ladi.

Muhayyo TOSHOQRAYEVA,
O'ZA muxbiri

Prezident maktablariga saralash imtihoni natijalari e'lon qilindi

Shu yilning 29-iyunidan 2-iyuliga qadar o'tkazilgan saralash imtihoni natijalari 16-iyul kuni Cambridge Assessment International Education tashkiloti veb-saytida e'lon qilindi.

Test natijalarini kompyuter yordamida <https://www.admissionstesting.org/pre-selection-results/> havolasi orqali ko'rishingiz mumkin.

Mazkur veb-saytga kirgandan so'ng avval talabgor topshirgan hududni (Toshkent, Namangan, Xorazm va Qoraqalpog'iston Respublikasi), so'ng sinfni tanlaysiz (5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-sinf).

Nomzodning natijasini bilish uchun **qidiruv tugmasini bosib** (Ctrl+F), sizga taqdim etilgan **11 raqamli** maxsus identifikatsiya raqamini terasiz va **Enter** tugmasini bo-

sasiz. Yakuniy bosqich imtihonlariga o'tgan nomzodlar jadvalning yuqori qismida ko'k rangda, yakuniy bosqich imtihonlariga o'ta olmaganlar esa oq rangda belgilangan bo'ladi.

Asosiy imtihonlar 21—24-iyul kunlari o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Nomzodlarning asosiy imtihonlarga puxta tayyorgarlik ko'rishiga ko'maklashish maqsadida Cambridge Assessment tashkiloti tomonidan Prezident maktablariga kirish imtihoni savollar **namunasi ingliz tilida** taqdim etildi.

MUXBIRIMIZ

Xalqaro Islom akademiyasining Qoraqalpog'iston Respublikasi mintaqaviy filiali ish boshladi

Nukusda Xalqaro Islom akademiyasining Qoraqalpog'iston Respublikasi mintaqaviy filialiga ega bo'lgan Malaka oshirish markazi faoliyat boshladi. "Imom Eshon Muhammad" jome masjidida imom-xatiblarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv-seminari bo'lib o'tdi.

Prezidentimizning 2018-yil 16-apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq tashkil qilingan mazkur markazda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi imom-xatiblar, imom noiblari, diniy soha mutaxassislari, davlat va jamoat tashkilotlari xodimlari, oliy va o'rta ta'lim muassasalarining sohaga tegishli pedagog kadrlari qayta tayyorgarlikdan o'tadi va malaka oshiradi.

Diniy soha mutaxassislarining malakasini oshirish o'quv-seminari oliy o'quv

yurtlarining professor-o'qituvchilari hamda Beruniy nomidagi o'rta maxsus islom bilim yurtining tajribali o'qituvchilari tomonidan o'qitiladi.

Eslatib o'tamiz, Prezidentning ushbu farmoni bilan O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlari mintaqaviy filiallariga ega bo'lgan Malaka oshirish markazi tashkil etilishi belgilangan.

Y.QANOATOV,
O'ZA muxbiri

Savol bering, javob beramiz

Hech bir maktab yaxshi yoki yomonga ajratilmaydi

Vazirlar Mahkamasining shu yil 7-iyunda e'lon qilingan "Bolalarni davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori jamoatchilikning qizg'in muhokamalariga sabab bo'ldi. Qaror yuzasidan ko'plab yurtdoshlarimiz savollar bilan murojaat qildi. Quyida e'tiboringizga ushbu savollarga Xalq ta'limi vazirligi axborot xizmatidan olingan javoblarni havola etamiz.

— Boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilari ta'limni mikrohududidan tashqaridagi maktabda davom ettirmoqchi bo'lsa, bunday holatda ham ota-ona qo'shimcha kvota asosida badal to'laydimi?
Xayrullo ABDURAHMONOV

— Bolalarni davlat umumta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini bosqichma-bosqich amalga oshirilib, joriy yilda faqat poytaxtimizdagi 81 ta maktabning 1-sinfiga qabul jarayonini tartibga soladi. Bu hujjat o'quvchilarning bir sinfdan ikkinchisiga yoki bir maktabdan boshqasiga o'tish jarayoni uchun tatbiq etilmaydi.

— Maktabga qabul jarayonida bir sinfga o'rtacha 30-35 nafar o'quvchi qabul qilinadi. Agar mikrohududda 7 yoshli o'quvchi 5 nafar bo'lsa, qolgan o'rnlarga o'quvchilar pullik tartibda qabul qilinadimi?
Noila LUQMONOVA

— Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi nizomning 5-bobi, 39-bandiga muvofiq, maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga qamrab olish tuman(shahar) hokimliklarining qarori bilan umumta'lim muassasalariga birlashtirilgan hududlar(mikrohudud) doirasida amalga oshirilishi belgilangan. Ma'muriy reglamentga muvofiq, asosiy kvota doirasida birinchi navbatda umumta'lim maktablariga birlashtirilgan mikrohududdagi maktab yoshiga yetgan bolalar qamrab olinmoqda. Shundan so'ng maktabning imkoniyati, ya'ni o'quvchi o'rni mavjudligi, pedagog kadrlar bilan ta'minlangani, sinf xonalarining o'quv mebellari bilan jihozlangani hisobga olinib, qo'shimcha kvota belgilanishi mumkin.

— Agar nomzodning ota-onasi Toshkent shahrida vaqtinchalik propiska bilan uzoq yillardan beri yashab, ishlab kelayotgan bo'lsa, farzandini poytaxtdagi maktabga joylash tartibi qanday?
Doniyor SODIQOV

— Joriy yildan boshlab, Davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali qabul mexanizmi faqatgina Toshkent shahridagi 81 ta maktabda tatbiq etiladi. Keyingi yildan viloyatlarda ham bu tizim yo'lga qo'yiladi.

Bu yil poytaxtdagi 81 ta maktabdan tashqari 228 ta maktabda 1-sinfga qabul Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori asosida amalga oshiriladi. Qo'shimcha ma'lumotlar olish va farzandingizni umumiy o'rta ta'lim maktabiga joylashtirish uchun Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasida tashkil etilgan muvofiqlashtiruvchi guruhga murojaat etishingiz mumkin.

(Manzil: Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shohko'chasi, 69-uy, telefon raqami: (71) 237-08-26)

2019-2020-o'quv yilida poytaxtdagi 309 ta umumta'lim maktabning 1-sinfiga 47 298 nafar o'quvchi qabul qilinishi ko'zda tutilgan. Shundan 81 ta maktabga 7 959 nafar bola (17 foiz) davlat xizmatlari ko'rsatish orqali, qolgan 228 ta maktabga 39 339 nafar o'g'il-qiz (83 foiz) to'g'ridan to'g'ri qabul qilinadi.

— Respublikamizning barcha hududlarida yangi turarjoylar qurildi. Ammo hamma joyda ham birdek ta'lim maskanlari qurib, foydalanishga topshirilmadi. Shu bois ota-onalar farzandini boshqa maktablarga berishga majbur bo'lmoqda. Aslida maktablar aholi turarjoylariga qarab qurilishi kerak emasmi?
Gulchehra ASHUROVA

— Respublikaning barcha hududlarida, shu jumladan, poytaxtimizda ham yangi turarjoy mas-sivlari barpo etilmoqda. Bosh reja loyihasida ijtimoiy soha obyektlari, xususan, umumta'lim maktablarini ham barpo etish rejalashtirilgan. Jumladan, Sergeli tumanida shu yilning o'zida 1 580 o'rinni 4 ta yangi maktab qurish ishlari boshlangan.

Bu kabi yangi maktablar qurish yuzasidan Xalq ta'limi vazirligi tomonidan kelgusida tegishli vazirlik va idoralarga takliflar berib boriladi.

— Shu vaqtga qadar 1-sentabrgacha 6,6 yoshga to'lgan bola maktabga hech qanday suhbat-siz 7 yoshlilar qatorida qabul qilinardi. Farzandim bu yil shu tartibga ko'ra qabul qilinishi mumkin edi. Endi esa pul to'laymanmi?
Zilola MADATOVA

— Davlat xizmatlari ko'rsatish bo'yicha ma'muriy reglamentga muvofiq asosiy kvota doirasida birinchi navbatda birlashtirilgan mikrohududda yashovchi tegishli yilning 31-dekabriga qadar 7 yoshga to'lgan bolalar qabul qilinadi. Shundan so'ng maktabning imkoniyatidan kelib chiqib qo'shimcha kvota belgilanishi mumkin.

Davlat xizmatlari ko'rsatilmaydigan 228 ta maktabda amaldagi tartib asosida qabul davom etmoqda.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 999-sonli qaroriga muvofiq, 6 yoshli bolalarni bepul maktabga tayyorlash imkoniyati yaratilgan.

— Davlat maktablarini yaxshi-yomonga ajratish jamiyatda tabaqalanishni keltirib chiqarmaydimi? Axir hamma maktablar bir xil sharoitga ega bo'lishi kerak emasmi?
Dilrabo SAFAROVA

— Aslida hech bir maktab yaxshi yoki yomon deb ajratilmaydi. Bu shunchaki ayrim ota-onalarning fikri, xolos. 81 ta maktab o'quvchilar kontingentidan kelib chiqib

tanlandi. Tahlillarga ko'ra, 81 ta maktab Toshkent shahridagi jami maktablarning 26 foizini tashkil etgan holda, ularda qariyb ikki baravar ko'p, ya'ni 43 foiz o'quvchi ta'lim oladi. Shuningdek, ta'lim sifati ham ota-onalar ishongandek emas. Fan olimpiadasida bor-yo'g'i 2 nafar (9 foiz) o'quvchi g'olib bo'lgani mazkur muassasalarining ganchalik "nufuzli" ekanini ko'rsatib turibdi.

Aslida barcha maktablarda bir xil talab, bir xil davlat ta'lim standartlari belgilangan.

Shuningdek, qarorda bolalarni davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalariga qabul qilish Davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali bosqichma-bosqich joriy etilishi belgilangan. Shu bois bosqichma-bosqich respublikamizdagi boshqa maktablarda ham qabul Davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali amalga oshirilishi mumkin.

— Bosh Qomusimizning 41-moddasiga ko'ra ta'lim bepul hisoblanadi. Bu qaror Konstitutsiyamizning shu moddasiga zid emasmi?
Nosir POLVONOV

— Hech kimning bepul ta'lim olish huquqi cheklanmagan, aksincha, har bir oilaning maktab yoshiga yetgan farzandini o'zi istiqomat qilayotgan mikrohududdagi maktabga berishi uchun imkoniyat yaratilib, o'g'il-qizlarning maktabga bepul joylashishi kafolatlanmoqda. Tahlillarga ko'ra, davlat xizmatlari ko'rsatilayotgan 81 ta maktabning 28 mingdan ortiq o'quvchisi boshqa hududlardan kelib ta'lim olmoqda. Davlat xizmatlari ko'rsatish orqali mikrohudud doirasida bolalarning bepul maktabga joylashishi shaffof tizim orqali amalga oshirilmog'da.

Qolaversa, amaldagi qonunchilik talabi bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarining Konstitutsiyaga zid yoki zid emasligi haqida qarorni (xulosani) faqat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi bera oladi.

— Bu qaror bilan ta'limda korrupsiya legallashtirib qo'yilmadimi?
Latofat BO'RIYEVA


— O'rganishlar va ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra, ota-onalar tomonidan talab yuqori bo'lgan maktablarda avval 1-sinfga qabul jarayonida ota-onalar ko'plab ovoragarchiliklarga, sun'iy to'siq yoki korrupsiya holatlariga duch kelgan, natijada tanish-bilish qidirish yoki maktab rahbariyatiga noqonuniy pul to'lashga harakat qilingan.

Bu kabi holatlar oqibatida maktablarda tanish-bilishlarning qo'ng'iroq orqali iltimoslari yoki noqonuniy to'lovlar natijasida maktab sig'imiga nisbatan ko'proq o'quvchilar qabul qilinishi, sinflarda bolalar soni 40 – 50 nafargacha oshib ketishi holati kuzatilmog'da. O'z navbatida, mazkur maktablardagi ta'lim sifati tushib ketgan. Ayniqsa, 7 yoshdan kichik yoki ta'lim olib boriladigan tilni bilmaydigan o'quvchilarga pedagoglarning ko'proq kuch va e'tibor qaratishi boshqa o'quvchilarning o'zlashtirishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmog'da. Eng yomoni, tanish-bilish yoki yuqoridan qo'ng'iroq orqali bolasini joylashtirish kabi salbiy holatlar oqibatida, o'sha mikrohududda yashaydigan aholining farzandi bunday talab yuqori bo'lgan maktablarda o'qish imkoniyatidan mahrum bo'lgan. Bu aholining haqli e'tirozlarini keltirib chiqargan.

Savollarga Xalq ta'limi vazirligi axborot xizmati javob berdi.

Navbatdagi dovon — test jarayoni

(Davomi. Boshi 1-betda.)



2019/2020-o'quv yilida abituriyentlardan hududlar kesimida tushgan arizalar haqida ma'lumot:

Toshkent shahridagi 28 ta OTMga jami 265 200 ta;
Samarqanddagi 9 ta OTMga jami 117 253 ta;
Farg'onadagi 7 ta OTMga jami 88 947 ta;
Andijondagi 4 ta OTMga jami 75 263 ta;
Qashqadaryodagi 6 ta OTMga jami 70 779 ta;
Surxondaryodagi 6 ta OTMga jami 67 067 ta;
Qoraqalpog'istondagi 9 ta OTMga jami 64 039 ta;
Namangandagi 3 ta OTMga jami 55 967 ta;
Jizzaxdagi 3 ta OTMga jami 53 106 ta;
Toshkent viloyatidagi 4 ta OTMga jami 52 877 ta;
Xorazmdagi 3 ta OTMga jami 44 246 ta;
Buxorodagi 4 ta OTMga jami 43 431 ta;
Sirdaryodagi 2 ta OTMga jami 38 687 ta;
Navoiydagi 2 ta OTMga jami 30 063 ta.

Quyidagi oliy ta'lim muassasalariga eng ko'p hujjat qabul qilingan:

1. Samarqand davlat universiteti — 74 377 abituriyent, shundan 42 197 nafari kunduzgi, 1 967 nafari kechki, 30 213 nafari sirtqi ta'lim shakliga hujjat topshirdi (2018-yili 37 265 nafar).
2. Andijon davlat universiteti — 45 977 abituriyent, shundan 29 288 nafari kunduzgi, 16 689 nafari sirtqi (2018-yili 35 336 nafar).
3. Qarshi davlat universiteti — 44 676 abituriyent, shundan 24 899 nafari kunduzgi, 19 777 nafari sirtqi (2018-yili 38 662 nafar).
4. Farg'ona davlat universiteti — 42 118 abituriyent, shundan 26 259 nafari kunduzgi, 15 859 nafari sirtqi (2018-yili 33 762 nafar).
5. Urganch davlat universiteti — 39 405 abituriyent, shundan 25 959 nafari kunduzgi, 13 446 nafari sirtqi (2018-yili 29 ming 664 nafar).

Eng katta tanlov (birinchi tanlangan ta'lim yo'nalishiga nisbatan):

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali — 1 o'ringa 29, 47 tani;
Andijon tibbiyot instituti — 1 o'ringa 21, 49 tani;
Samarqand davlat universiteti — 1 o'ringa 17, 97 tani;
Termiz davlat universitetining Denov filiali — 1 o'ringa 17, 33 tani;
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali — 1 o'ringa 17, 11 tani tashkil etdi.

Test sinovlarisiz, kasbiy (ijodiy) imtihonlar orqali o'qishga qabul qilinadigan ta'lim yo'nalishlariga abituriyentlardan 86 748 ta (kunduzgiga 53 263 ta, kechkiga 104 ta, sirtqiga 33 381 ta) hujjat ro'yxatdan o'tkazildi.

Ro'yxatdan o'tgan abituriyentlarning yoshiga nisbatan ko'rsatkich:

Eng yosh abituriyent 14 yosh (14 yosh 212 kun).

Eng yoshi katta abituriyent 87 yosh (87 yosh 182 kun).

Test sinovlarini uyushqoqlik bilan xolis, shaffof o'tkazish hamda jarayonlarni www.test2019.uz sayti orqali onlayn rejimda ko'rsatib borishga tayyorgarlik ko'rilmog'da.

Barno RAJABOV,
DTM bosh boshqarma boshlig'i

O'quvchilarimiz — Xalqaro matematika olimpiadasida

Xalq ta'limi vazirligi axborot xizmatining ma'lum qilishicha, O'zbekiston terma jamoasi joriy yilning 16—21-iyul kunlari bo'lib o'tadigan 60-xalqaro matematika olimpiadasida (XMO) ishtirok etish uchun Buyuk Britaniyaga jo'nab ketdi.

Terma jamoa tarkibida Jahongir To'rayev, Rasulbek Ozodov, Abbas Sayliyev, Jasurbek Imomov, Abdushukur Ahadov va Akbar Erkinov yurtimiz sharafiga himoya qiladi. Toshkent shahridagi Inha universiteti professori (PhD) Rustam Turdiboyev O'zbekiston terma jamoasi guruh rahbari etib tayinlangan.

Ta'kidlash lozimki, Xalq ta'limi vazirligining Fan olimpiadalari bo'yicha iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash departamenti terma jamoani mazkur olimpiadaga tayyorladi.

Mamlakatimiz terma jamoasi 1997-yildan beri XMOda ishtirok etadi va shu kunga qadar 9 ta kumush, 26 ta bronza medalni qo'lga kiritgan.

Xalqaro matematika olimpiadasi umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida har yili o'tkaziladigan jahon chempionati hisoblanadi. Birinchi XMO 1959-yili Ruminiyada yetti mamlakat vakillari ishtirokida o'tkazilgan. So'nggi yillarda xalqaro olimpiadada besh qit'adan yuzdan ortiq mamlakat yoshlari qatnashib kelmoqda. XMO kengashi olimpiadada ishtirok etuvchi mamlakatni tas-

diqlab, o'z an'analari asosida qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi.

XMO qoidalariga ko'ra, har bir mamlakat olti qatnashchidan iborat guruhni olimpiadaga yuboradi. Ishtirokchilar ikki kun davomida bellashadi. Ularga 6 ta vazifa (kuniga uchta topshiriq) beriladi. Har biri 7 ball bilan baholanadi. Ko'pi bilan 42 ball jamlanadi.

Topshiriqlar matematikaning turli yo'nalishlari, ya'ni algebra, geometriya, sonlar nazariyasi va kombinatorika bo'limlaridan tanlab olinadi. Mazkur topshiriqlarni yechishda oliy matematika bo'yicha majburiy bilimlarga ega bo'lish talab qilinmaydi. Olimpiada uchun topshiriqlar tanlanayotganda, oddiy vaziyatdagi muammolarga e'tibor qaratiladi.

Xayrullo ABDURAHMONOV

O'qituvchi niman o'ylaydi?



✓ Ba'zan o'quvchilarning yozgan insholaridan ko'nglim to'lmaydi. Nega bular juda sayoz fikrlasharkan, yozganlarida izchillik yo'q, deb o'ylardim. Bildimki, buning asosiy sababi kitob o'qimaslik. Mutolaa tasavvurni boyitadi, so'z boyligini oshiradi. Yurtimizda kitobxonlikka katta e'tibor qaratilmoqda. Kutubxonalimiz kitoblarni bilan to'ldi. Endi o'quvchilarimiz yozgan insholarda ham o'zgarishlar bo'lar, degan umiddaman.

Farida AXBORALIYEVA

✓ Televizorning qulog'ini bura-sangiz, kimdir yutug'idan xursand, yana kimdir kvartira yuta olmaganidan xafa. Hayron qolasan, kishi. Bolalarimiz, nabiralarimiz faqat yutuqli mahsulotlarga yopishgani yopishgan. Bolalar nari tursin, hatto kattalar ham "... ichdim, spark yutdim", deya yolg'on "shou"larining asiriga aylanib bormoqda. Aslida hayotimiz yengil-yelpi hoy-u havaslarga to'lib ketyapti. Bularga qachon chek qo'yilarkan?!

Gulchehra ASHUROVA

✓ Avgust kengashlari desa, is-siqdan dimiqqan xona, asabiylashib, biror yangilik aytilishini yoki kengashning tezroq tugashini kutayotgan pedagoglar hamda savollarga aniq javobi yo'g'-u ammo "chiroyli" kiyinishni qoyillatadigan metodistlar ko'z oldimga keladi... Afsuski, 30 yildan beri bir xil manzara.

Matluba NAVRO'ZOVA

✓ O'qituvchi o'z sog'lig'iga ham jiddiy e'tibor qaratishi zarur. Ayniqsa, asab, qon bosimi kabi kasalliklarning oldini olishi lozim. Aslida mehnat ta'tili puliga bemaol sanatoriylarda davolanib, hordiq chiqarishimiz mumkin. Lekin negadir ko'pchilimiz bunday qilmaymiz. O'sha pulga sog'lig'imizdan qizg'anib, nimalardir xarid qilgimiz keladi. Ta'lim muassasalaridagi sog'lom muhitni aqlan va jismonan sog'lom pedagoglar yaratadi.

Gavhar TURDIYEVA

✓ O'qituvchi o'quvchilarni tashqi ko'rinishi bilan emas, aksincha, bilimi va ravon nutqi bilan o'ziga jalb qilishi kerak.

Farida ASLZODA

“Devorlari ko'hnagina, oyvonchasi juda tor” bog'cha haqida

Yoxud bir she'r bilan mashhur bo'lgan Nishon tumanidagi 18-maktabgacha ta'lim muassasasiga “sayohat”


O'tgan oyda ijtimoiy tarmoqlarda Nishon tumani Nuriston shaharchasidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar ifodalangan she'r katta shov-shuvga sabab bo'ldi. She'rda “Nuriston” mahallasida joylashgan 18-maktabgacha ta'lim muassasasi-ning devorlari ta'mirlanib, bog'chaga bolalarni joylashtirish uchun navbat ko'pligi, ko'p qavatli uylarda bog'cha ochib bo'lmazligi, shuningdek, hududdagi bittagina MTM bog'cha yoshidagi barcha bolalarni qamrab ololmayotgani tanqid ostiga olingan. Muxbirimiz mazkur maktabgacha ta'lim muassasasiga borib, vaziyat bilan yaqindan tanishdi.

Dastlab tuman maktabgacha ta'lim bo'limi taqdim etgan ma'lumotlarga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. “Nuriston” mahallasida joylashgan 18-maktabgacha ta'lim muassasasi 1980-yili qurilgan bo'lib, 240 o'ringa mo'ljallangan. Bugungi kunda mazkur muassasada 375 nafar bola tarbiyalanmoqda. Ularning 100 nafari qisqa muddatli guruhlariga qamrab olingan. Shu bilan birga 357 nafar bola navbatda turibdi. Ushbu ko'rsatkich yil boshida 731 nafarni tashkil etgan. Maskanning kanalizatsiya tarmog'i 2019-yili qisman ta'mirlangan. Bino ichki xonalarining pol qismi, elektr tizimi, fasad, tom qismi, eshik va romlari, isitish tizimi, oshxona, tashqi bolalar o'yingohlari to'liq ta'mirga muhtoj.

Nuriston shaharchasida “Nuriston”, “Kimyogar”, “Nurchi” mahalla fuqarolar yig'ini mavjud bo'lib, 3—7 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 1512 nafar. Ularning 810 nafar. Bu ko'rsatkich 53,5 foizni tashkil etadi.

“Nuriston” mahallasida yashovchilarning 280 nafar farzandi “Sho'r-tangazkimyo” majmuasiga qarashli “Erkatoy-1”, “Erkatoy-2” maktabgacha ta'lim muassasasida, 50 nafari 2 ta nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasida, 30 nafari davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan bog'chada, 75 nafari 3 ta oilaviy maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalanmoqda.

Yaqin yillarda mahalla hududida tadbirkor M.Samadova tomonidan 150 o'rinli davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat bog'cha qurilishi rejalashtirilgan. Tadbirkor I.Aliyev tomonidan 75 o'rinli MTM tashkil etish bo'yicha hujjatlar Maktabgacha ta'lim vazirligiga taqdim etilgan. Tadbirkor J.Xolmurodovga 100 o'rinli davlat-xususiy sheriklik asosida no-



davlat MTM qurish uchun yer maydoni ajratilgan. Shuningdek, R.Mirzayeva, Ch.Norqulova, R.Pakirovalarga oilaviy maktabgacha ta'lim muassasasi tashkil etish uchun amaliy yordam berilmoqda.

Bog'cha hovlisiga qadam qo'yar ekanmiz, kiraverishdagi bolalar o'yingohida birorta ham zamonaviy arg'imchoqqa ko'zimiz tushmadi. Bizni muassasa metodisti Gulzor Safarova qarshi oldi. U bog'cha mudirasi Dilorom Pakirova farzandi betobligi bois ishga kelolmaganini ma'lum qildi.

Bog'chada ayni damda 35 nafar tarbiyachi, 24 nafar yordamchi tarbiyachi, 2 nafar hamshira, 2 nafar musiqa rahbari, 4 nafar oshpaz, 1 nafardan xo'jalik va ombor mudiri, 3 nafar qorovul hamda 2 nafar kiriyuvchi faoliyat olib bormoqda.

Dastlab bog'cha tarbiyalanuvchilarning ovqatlanishi bilan qiziqdik.

Taomlarni tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan taqdim etilgan bir oylik me'yoriy taomnomaga asosan tayyorlaymiz, — deydi bog'cha hamshirasi Nasiba Kenjayeva. — Hozircha tabiiy gaz, gaz balloni yo'qligi bois dala oshxonasidagi qo'lbola o'choqda tayyorlashga majburiy.

Hamshira hamrohligida oshxona deb atalgan imoratga kiramiz. Holat sanitariya-gigiyena talablariga shu qadar zidki, bu yerda tayyorlangan taomni tanovul qilishga kishi cho'chidi. O'choq atrofi tutundan qorayib ketgan, chiqindi uyumi shiftga yetay deb qolgan.

Ushbu holat yuzasidan na hamshira Nasiba Kenjayeva, na bosh oshpaz Nilufar Xolikulova biror so'z deya oldi.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi: shov-shuvlariga sabab bo'lgan birgina she'r ta'sirida butun xalqning nigohi Nuristonga — ushbu bog'chaga qaratilgan bir paytda tarbiya maskanida mehnat qilayotganlarning nega parvoyi falak? Ular nega bog'chadagi ko'ngilsiz holatlarning qis-

man bo'lsa-da, oldini olishga e'tibor qaratishmayapti? Balki ta'mirlash ishlariga katta mablag' kerakdir, balki u hukumat darajasidagi ishdir, lekin bog'chadagi tozalik ishlarini ham kimdir kelib qilib berishi kerakmi?! Maqolamiz avvalida muassasada faoliyat yuritayotgan xodimlar soniga bejiz to'xtalmadik. O'zingiz xulosa qiling, shuncha xodim bilan bog'chadagi tozalik va obodonlashtirish ishlarini atigi bir yoki ikki soatda o'z intihosiga yetkazish mumkin emasmi?!

Ko'p yillik tajribaga ega tarbiyachi Gulchehra Bo'ronova mashg'ulot olib borayotgan “Lastochka” deb nomlangan o'rta guruh xonasidamiz. Guruh mashg'ulotida 25 nafar tarbiyalanuvchidan 15 nafari ishtirok etmoqda, xolos.

Mashg'ulot xonamizda shamollatish tizimi yo'q, — deydi guruh rahbari G.Bo'ronova. — Shuning uchun bolalarimiz yozning jazirama kunlari kelishmaydi. Bundan tashqari, idish-tovoq ham yetishmaydi. Bu kabi kamchiliklarni sanayversak, barmog'imiz kamlik qiladi.

“Kamalak” nomli kichik guruh xonasida ham bir qator yetishmovchiliklar ko'zga tashlanadi.

Xonamizning ichki fasadi, eshik-romlari, poli allaqachon yaroqsiz holga kelib qolgan. Buni tarbiyachilar yoki ota-onalar tashabbusi bilan bartaraf etib bo'lmaydi, — deydi tarbiyachi.

O'z navbatida, farzandi bu yerda tarbiyalanayotgan bolalarning ota-onasini suhbatga tortdik.

Biz bog'cha jamoasi bilan yaqindan hamkorlik qilib kelimiz, — deydi tarbiyalanuvchi Og'abek Hotamovning onasi Chamanoy Aralova. — Bog'cha imorati haqiqatan ham juda eski, ta'mirlanib. Shunga qaramasdan qo'limizdan kelgan muassasaga ko'maklashaypmiz. Yaqinda men ham barcha ota-onalar qatori 10 dona bolalar adabiyoti sovg'a qildim. Bog'chada rus tili, ingliz tili to'garaklari tashkil etilishini xohlaymiz.

Bog'cha hayoti bilan siz ham tanisha turib beixtiyor shunday xayollar ko'nglingizdan o'tsa ajabmas: yaqin kelajakda bu ta'lim maskani ko'zmunchogdek qilib ta'mirdan chiqarilar ham. Lekin o'shanda ham jamoa bugungidek boqibeg'am va loqayd bo'lsa, hech narsa o'zgarmaydi. Aksincha, bog'chada yaratilgan qulayliklar ham birin-ketin yo'qqa chiqaveradi. Shunday bo'lmazligi uchun, avvalo, jamoa intiluvchan va tashabbuskor bo'lmog'i dardkor.

O'ktam MEYLIYEV,
“Ma'rifat” muxbiri

Savol bering, javob beramiz!

?

Savol

— O'rindoshlik asosida ishlagan o'qituvchilarga ta'til beriladimi?

A.ABDIYEV

Javob

!

— O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 133-moddasiga asosan, barcha xodimlarga, shu jumladan, o'rindoshlik asosida ishlayotgan xodimlarga ham dam olish va ish qobiliyatini tiklash uchun ish joyi (lavozimi) va o'rta tacha ish haqi saqlangan holda yillik mehnat ta'tillari beriladi.

Bundan tashqari, kodeksning 143-moddasiga asosan, ta'til o'rindoshlik asosida ishlayotganlarga asosiy ish joyidagi ta'til bilan bir vaqtda, o'rindoshlik asosida ishlagan vaqtiga mutanosib ravishda haq to'lagan holda ularning xohishi bo'yicha olti oy o'tmasdan oldin beriladi.

Savolga Xalq ta'limi vazirligi xodimi
Buxorboy AKRAMOV javob berdi.

?

Savol

— Men ayni paytda oliy o'quv yurtining 4-kursida o'qish bilan birga Xatirchi tumanidagi 53-maktabda o'rindoshlik asosida ishlayman. May oyigacha o'rindosh bo'lib ishlaganim uchun har dars soatiga 10 ming so'mdan to'lanardi. Aprel oyidan 19 ming so'mdan hisoblandi. Ammo “Ma'rifat” gazetasida chop etilgach” sarlavhali maqolada yanvar oyidan avval to'langan soatbay haq qayta hisoblanishi yozilgan. Shu asosda men ham oylik ish haqimni qayta hisoblatishim mumkinmi?

Mohira ESHPO'LATOVA


Javob

!

— Chindan ham gazetada “Pedagoglar dars o'tishni xohlamayapti” sarlavhali maqola chop etilgach, Moliya vazirligi mutaxassislari masalani o'rganib chiqishdi. O'rindoshlik asosida ishlayotgan o'qituvchilar oylik ish haqi miqdori qayta ko'rib chiqilib, normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritildi. Shu sababli 2019-yil yanvar oyidan boshlab, o'rindosh dars o'tayotgan pedagoglarga soatiga 19 ming so'mdan maosh to'lash belgilangan.

Bu masalada, tuman xalq ta'limi bo'limiga murojaat qilishingiz mumkin.

Tahririyat



Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun muqobil darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni taqdim etuvchi ijodiy jamoalarga YO'RIQNOMA

1-bob. Umumiy ma'lumot

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun muqobil darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalarni yaratish va ulardan foydalanish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish tizimiga bosqichma-bosqich o'tish mexanizmini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 281-son qarori asosida amalga oshiriladi.

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun muqobil darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalarni aniqlash O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Umumiy o'rta ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda darsliklarni qayta ko'rib chiqish va yangilarini yaratish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan amalga oshiriladi.

3. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun muqobil darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalarni ko'rib chiqish bilan bog'liq barcha tashkiliy ishlar Xalq ta'limi vazirligining **ishchi organi** bo'lgan Respublika ta'lim markazi tomonidan amalga oshiriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalarni belgilangan talablar asosida chop etishga tayyor mahsulot ko'rinishida taqdim etuvchilar, tuzuvchilar, davlat va nodavlat hamda xorijiy tashkilotlar, nashriyot va matbaa korxonalari, dizayn studiyalar va boshqa tashkilotlar (keyingi o'rinlarda **ijodiy jamoalar** deb ataladi) umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalarni yaratish bo'yicha tegishli kompetensiyaga ega bo'lishi shart va ular teng huquqli ishtirokchi hisoblanadi.

5. Muqobil darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalarni tayyorlash va taqdim etish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlari ijodiy jamoalar hisobidan amalga oshiriladi va takliflar ko'rib chiqilishi natijalaridan qat'i nazar, ishchi organ ushbu xarajatlarni o'z zimmasiga olmaydi.

6. Ijodiy jamoalar tomonidan tayyor mahsulot ishchi organiga taqdim etilganida ekspertiza uchun uning hisobraqamiga har bir bosma tabog'i uchun eng kam ish haqining uch barabari miqdorida to'lov amalga oshiriladi. To'lovsiz taqdim etilgan takliflar ko'rib chiqilmaydi.

7. Ijodiy jamoalar umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun muqobil darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni taqdim etishga doir hujjatlarning elektron variantini ishchi organidan olishlari mumkin.

8. Ijodiy jamoalar tomonidan hujjatlarda ko'rsatilgan o'tilgan va talab qilingan ma'lumotlarni to'liq taqdim etmaslik taklifning ko'rib chiqilmasligiga asos bo'ladi.

9. Ijodiy jamoalar qo'shimcha ma'lumot olishlari uchun ishchi organiga murojaat qilishlari mumkin. Murojaatlar e'londa

berilgan muddat tugashidan kamida bir oy oldin berilishi lozim. Shuningdek, hujjatlarga tegishli o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritilgan hollarda o'z taklifini taqdim etgan ijodiy jamoalar ishchi organ tomonidan qo'shimcha ravishda xabardor qilinadi.

2-bob. Takliflarning tayyorlanishi, topshirilishi va ochildishi

10. Ta'lim rus, qoraqalpoq va qardosh tillarda o'qitiladigan maktablarning o'quvchilari uchun original (alifbe, yozuv daftari, ona tili, adabiyot) darsliklar o'z tillarida yoziladi.

11. Ijodiy jamoalar tomonidan davlat tilidan boshqa tilda (xorijiy tillardan tashqari) berilgan darslik va o'quv-metodik qo'llanma, uning o'zbek tilidagi tarjimasini bilan birga (o'zbek tilining asosiy imlo qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda) topshirilishi shart(rus va qardosh tillarda yoziladigan original darslik va o'quv-metodik qo'llanmalar bundan mustasno).

12. Ijodiy jamoalar tomonidan taqdim etiladigan takliflar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) ariza(ilovadagi shaklda);
- b) ijodiy jamoa haqida ma'lumot;
- d) darslik maketi(chop etishga tayyor holda);
- e) o'quv-metodik qo'llanma maketi(chop etishga tayyor holda);
- f) ijodiy jamoalar ishchi organiga 5 nusxada darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalarining (tayyor mahsulot holatidagi) to'liq variantini taqdim etishi shart. Bunda taklifning 1 tasi asl nusxada, 4 tasi ko'chirma nusxada bo'ladi. Darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalarining elektron variantini (elektron qurilmada) konvertida muhrlangan va imzolangan holda taqdim etadi;
- g) ijodiy jamoa o'z nomidan yoki ishonch xati bilan vakili orqali takliflarni taqdim etishi mumkin.

Eslatma: Ijodiy jamoalar o'z takliflarini O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun foydalanishga tavsiya etiladigan darsliklar va o'quv-metodik adabiyotlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 3-iyundagi "Ta'lim muassasalari uchun xavfsiz poligrafiya mahsulotlari haqidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash to'g'risida"gi 146-son qarori hamda amaldagi sanitariya qoidalar va me'yorlari (SanQvaM №0359-18 19.07.2018-y.) talablariga amal qilgan holda taqdim etishi kerak(takliflarning mazkur talablarga muvofiqligi bo'yicha Davlat sanitariya-epidemiologik nazorat markazining tegishli xulosasi bo'lishi shart).

Izoh: Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2021/2022-o'quv yilida foydalanishga tavsiya etilgan amaldagi darslik hamda o'quv-metodik qo'llanmalarining texnik tafsilotlari namuna sifatida ilova qilinadi(har bir o'quv predmeti bo'yicha darslik va o'quv-metodik qo'llanmalar majmua sifatida taqdim etilishi mumkin).

T/r	Darslik nomi	Sinfi	Ta'lim tili	Bichimi	Hajmi	Muqova rangi	Matn rangi
1	Ona tili	2	o'zbek	70x90 1/16	144 bet	4+0	4+4
2	Русский язык	2	rus	70x90 1/16	144 bet	4+0	4+4
3	Ona tili (Ana tili)	2	qoraqalpoq	70x90 1/16	128 bet	4+0	4+4
4	Ona tili (Ana tili)	2	qozoq	70x90 1/16	128 bet	4+0	4+4
5	Ona tili (Zaboni modari)	2	tojik	70x90 1/16	128 bet	4+0	4+4
6	Ona tili (Ene tili)	2	qirg'iz	70x90 1/16	128 bet	4+0	4+4
7	Ona tili (Ene dili)	2	turkman	70x90 1/16	128 bet	4+0	4+4
8	O'zbek tili	2	rus	70x90 1/16	80 bet	4+0	4+4
9	O'qish kitobi	2	o'zbek	70x90 1/16	176 bet	4+0	4+4
10	Книга для чтения	2	rus	70x90 1/16	200 bet	4+0	4+4
11	O'qish kitobi (Oquv kitabi)	2	qoraqalpoq	70x90 1/16	192 bet	4+0	4+4
12	O'qish kitobi (Oqu kitabi)	2	qozoq	70x90 1/16	192 bet	4+0	4+4
13	O'qish kitobi (Kitobi xonish)	2	tojik	70x90 1/16	192 bet	4+0	4+4
14	O'qish kitobi (Okuu kitebi)	2	qirg'iz	70x90 1/16	192 bet	4+0	4+4
15	O'qish kitobi (Okuw kitaby)	2	turkman	70x90 1/16	192 bet	4+0	4+4
16	Matematika	2	o'zbek	70x90 1/16	208 bet	4+4	4+4
17	Atrofimdagi olam	2	o'zbek	70x90 1/16	104 bet	4+0	4+4
18	Musiq	2	o'zbek	70x100 1/16	72 bet	4+0	4+4
19	Texnologiya	2	o'zbek	70x90 1/16	80 bet	4+0	4+4
20	Odobnoma	2	o'zbek	70x90 1/16	80 bet	4+0	4+4
21	Ingliz tili "Kid's English"	2	o'zbek	60x90 1/8	120 bet	4+0	4+4
22	Nemis tili "Deutsch mit spaß"	2	o'zbek	60x90 1/8	120 bet	4+0	4+4
23	Fransuz tili "Hirondelle"	2	o'zbek	60x90 1/8	120 bet	4+0	4+4
24	Ingliz tili mashq daftari "Workbook"	2	o'zbek	70x90 1/16	80 bet	4+0	4+4
25	Nemis tili mashq daftari "Arbeitsbuch"	2	o'zbek	70x90 1/16	80 bet	4+0	4+4
26	Fransuz tili mashq daftari "Cahier d'exercices"	2	o'zbek	70x90 1/16	80 bet	4+0	4+4
27	Русский язык	2	o'zbek	70x90 1/16	128 bet	4+0	4+4

13. Taklifning asli va ko'chirma nusxalari (shuningdek, boshqa hujjatlari) ijodiy jamoa a'zolari yoki ishonchli vakili tomonidan imzolangan bo'lishi shart.

14. Ishchi organga taqdim etilgan takliflarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra maqbul deb topilgan eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan takliflardan tashqari qolgan barcha takliflar bir nusxada olib qolinadi va qolganlari ijodiy jamoalarga qaytarib beriladi.

15. Ijodiy jamoalar o'z takliflarini e'londa ko'rsatilgan manzilda joylashgan ishchi organga (masalan: 2020-yil 30-iyun soat 14:00 ga qadar. Murojaat uchun telefon (71)246-17-68) topshirishlari shart.

16. Ko'rsatilgan muddatdan kechikib taqdim etilgan takliflar "kechikib topshirilgan taklif" deb hisoblanadi va qabul qilinmaydi.

17. Takliflarni qabul qilish muddatlari tugagach, taqdim etilgan takliflarga o'zgartirish kiritish, almashtirish va qaytarib olishga ruxsat etilmaydi.

3-bob. Muqobil tarzda taklif etilayotgan darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarining mazmuni va sifatiga qo'yiladigan UMUMIY TALABLAR

Izoh: Muqobil tarzda taklif etilayotgan darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarining mazmuni va sifati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori bilan belgilangan umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablardan past darajada bo'lmasligi lozim.

18. Umumiy talablarda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi.

O'quv-metodik majmua — darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimedia ilovasi va boshqalardan iborat majmua.

(Davomi 7-betda.)

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun muqobil darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni taqdim etuvchi ijodiy jamoalarga YO'RIQNOMA

(Davomi. Boshi 6-betda.)

Darslik — davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Mashq daftari — darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita.

O'qituvchi uchun metodik qo'llanma — darslikdagi har bir mavzuni samarali o'qitish metodikasi, qo'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Darsliklarning multimedia ilovalari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yoritilgan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi materiallarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi.

QR-kod — ingliz tilidan tarjima qilganda "quick response" termini "tezkor javob" deb tarjima qilinadi. QR-kod ikki o'lchamli shtrix-kod bo'lib, axborotni vizual kodlashtirish uchun qo'llaniladi. QR-kod ishinig asosiy tamoyili uning giperhavola tarzida ishlay olishidir. Bu ko'p ma'lumot haqida xabar berish zarur bo'lgan holatlarda yoki uni soddalashtirish kerak bo'lganda juda qulay. QR-kod suratlar mahsulot yoki xizmatni tanlash jarayonini osonlashtirishga qodir, chunki kichik kvadratchada 4 296 tagacha ramzlar joylashtirilgan bo'lishi mumkin. Ular matn tarzida joylashtirish noqulay va qimmat bo'lgan ma'lumotlarni sig'dira oladi.

VR-kod — "virtual reality"(virtual, sun'iy haqiqat). Bu texnik vositalar yordamida yaratilgan insonning ko'rish,

eshitish, his qilish va boshqa sezgilari orqali ta'sir qiluvchi sun'iy, virtual olam (dunyo) bo'lib, maxsus moslamalar (ko'zoynak) yordamida virtual olam virtual haqiqatga aylantiriladi.

Didaktik materiallar — o'quv jarayonida va darsda foydalaniladigan barcha tarqatma, ko'rgazma, plakat va boshqa o'quv materiallaridir. Didaktika — grekcha so'z bo'lib, "didayko" — o'qitish, "didasko" — o'rgatuvchi, ta'lim nazariyasi degan ma'noni anglatadi. Ta'lim berishda nimalarni asos qilib olish, nimaga va qanday o'rgatish yo'llarini pedagogikaning didaktika qismi o'rganadi. Qaysi fan bo'lishidan qat'i nazar didaktika umumiy qonuniyatlarini hisobga olgan holda o'tiladi, chunki u har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.

19. Muqobil o'quv-metodik majmualar davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlariga muvofiq, didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablar asosida ishlab chiqilgan darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma va darslikning multimedia ilovalarini o'z ichiga oladi.

20. Muqobil o'quv-metodik majmualarni tayyorlash va taqdim etish amaldagi qonun hujjatlari hamda ushbu Umumiy talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

21. Muqobil o'quv-metodik majmualarni tayyorlash va taqdim etish quyidagi prinsiplarga muvofiq bo'lgan holda bo'lishi lozim:

o'quv-metodik majmualar ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari asosida yaratilganligi;

o'quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi;

o'quvchilarda vatanparvarlik va milliy g'urur hissini shakllantirishga qaratilganligi;

umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining zarur hajmi berilganligi, o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

22. Muqobil o'quv-metodik majmualar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

didaktik talablar;
ilmiy-metodik talablar;
pedagogik-psixologik talablar;
estetik talablar;
gigiyenik talablar.

4-bob. Takliflarni baholash (ekspertiza qilish)

23. Ijodiy jamoalar taqdim etgan muqobil o'quv-metodik majmualarning qo'yilgan talablarga muvofiqligi ekspertlar tomonidan ko'rib chiqiladi (ekspertiza qilinadi), baholani va xulosa beriladi.

24. Ijodiy jamoalarga ekspertiza va baholash mezonlari, o'quv reja, fan yo'nalishtari bo'yicha davlat ta'lim standarti hamda o'quv dasturlari ishchi organi tomonidan beriladi.

5-bob. Taklif shakllari Ijodiy jamoa arizasining shakli

Ishchi organiga

ARIZA

(Ijodiy jamoa yoki uning vakili nomidan murojaat etuvchi)

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 2019-yil "___"-
Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun muqobil o'quv-metodik majmualarni tayyorlash bo'yicha berilgan e'longa ko'ra

ni

(darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarning to'liq nomi ko'rsatilsin)
tayyorlash bo'yicha ishtirok etishni ma'lum qilaman.

Bevosita muloqotda bo'lib turish uchun vakil sifatida
(vakilning F.I.O.)ga ishonch bildiramiz.

F.I.O., imzo, muhr, sana

Ijodiy jamoa a'zosi yoki vakilining ma'lumotnomasi

(muqobil darslik va o'quv-metodik majmualarning to'liq nomini ko'rsating)

1.	Familiyasi, ismi, otasining ismi	
2.	Uy manzili (pochta indeksi bilan)	
3.	Uy telefoni (shahar kodi bilan)	
4.	Tug'ilgan yili (kun, oy, yil)	
5.	Ish joyi:	
5.1.	Tashkilotning to'liq rasmiy nomi	
5.2.	Yuridik manzili (pochta indeksi bilan)	
5.3.	Telefon va faks (shahar kodi bilan)	
5.4.	Elektron pochta (e-mail)	
6.	Ushbu sohadagi umumiy ish tajribasi	
7.	Lavozimi, ilmiy unvoni va darajasi	
7.1.	Diplom bo'yicha mutaxassisligi, qachon, qayerni bitirgan	
8.	Eng asosiy nashrlar ro'yxati	
9.	Pasport seriyasi va nomeri, qachon va kim tomonidan berilgan	
10.	Qo'shimcha ma'lumotlar	

(F.I.O.)

(imzo)

Korxona yoki tashkilot rahbari

(F.I.O.)

M.O'.

(imzo)

Taklif berish shakli (2 nusxada)

Taklif №: _____

Ishchi organiga

Ijodiy jamoa tomonidan quyidagi takliflar taqdim etiladi.

- _____ (nomi to'liq ko'rsatilsin)
- _____ (nomi to'liq ko'rsatilsin)
- _____ (nomi to'liq ko'rsatilsin)

Imzo
Ijodiy jamoa yoki uning vakilining F.I.O.
Sana

Asqad MUXTOR

BIZDA FAQAT SHAYX SA'DIY ISHLAYDI

“Guliston”da ishlar edim. Mahmud Sa'diy degan xodimimiz borda kitob ayirboshlayotgan ekan, militsiya ushlab olib ketibdi. U juda bilimdon, kitobxo'r; biz uni Shayx deb atar edik... Mening iltimos bilan militsioner idoraga keldi, yoshgina leytenant ekan.

Gapni uzoqdan boshlamoqchi bo'ldim:

— Ibn Sino Buxoroning kitob rastasida Forobiyning Arastuga shahrlarini topib olganda xursandchiligidan bir zumga hushini yo'qotgan ekan...

— Forobiy degan shoirmi eshitganman, u ham sizda ishlaydimi?

— Yo'q, bizda faqat Shayx Sa'diy ishlaydi.

Hazil-mutyoya o'tmadi. Aniq gap qildim.

— Bu yigit uylanganida kelinni kuxnyaga tushirib kelgan. Chunki uch xonali uyning hamma xonalari liq kitob bo'lgan. U shunaqa kitob jinnisi.

— Jinniligiga spravkasi bormi?..

Umarali NORMATOV,
adabiyotshunos olim, professor:

— Mahmudjonning muharrirlik bobidagi zahmatlarini eslasam, beixtiyor Erkin A'zamning “Yozuvchi” hikoyasi qahramoni, uning qismati ko'z oldimda namoyon bo'ladi. Asli nomi — ism-sharifi ham unutilgan, “yozuvchi”, “muharrir”, “domla” degan nom ostida butun umri, bilim, aql-zakovatini o'z asarlariga emas, o'zgalarning “qoralama”larini “odam qilish” — yuzaga chiqarishga fido etgan g'aroyib zot kitobda emas, hayotda ham bor! O'zimizning Mahmudjon shulardan biri. Bir gal “O'zAS” tahririyatidagi Mahmudjonning xonasiga kirsam, muk tushib bir qo'lyozma ustida ishlab o'tiribdi. Salomimga alik ham olmay, shunchaki bosh silkitib ishini davom ettiraverdi. Fe'lini bilganim uchun ro'parasidagi stulga o'tirib indamaygina o'z ishim bilan shug'ullana boshladim. Nihoyat, yarim soatlardan keyin qog'ozdan boshini ko'tardi va tahrirdan chiqqan qo'lyozmani oldimga tashladi. Yoshi ham, ilmiy darajasi ham ulug' nomdor adabiyotshunosning maqolasi matniga ko'z yugurtirdim. Qalam tegmagan birorta ham jumla yo'q... “Muallif buni qancha muddat ichida yozganini bilmayman, ammo uni “odam qilish” uchun bir hafta o'tirdim”, dedi yelkasidan tog' ag'darilgandek yengil tortib, ayni paytda afsus-nadomat bilan. Ertasi maqola gazetada chiqdi, odamlarning og'ziga tushdi, tahririyatga, muallif xonadoniga telefon orqali tabriklar yog'ildi. Ammo ko'pchilik maqola qay tariqa shu holga kelganligini bilgani yo'q...

Yoqubjon IS'HOQOV,
adabiyotshunos olim,
Beruniy mukofoti laureati:

— Mahmud bilan gurgulashganda og'zingizga ehtiyot bo'ling: mabodo suhbat asnosida birorta yangi fikr yoki g'oyaning uchini chiqara ko'rmang! Aks holda... Siz tilga olgan mavzu, qoralama tarzida bo'lsa ham, qo'liga tushmaguncha Sizni tinch qo'ymaydi. Mabodo Sizni qidirib topolmasa, uyingizga “bostirib” borishdan ham toymaydi.

Dalil kerakmi — marhamat: 1985-yilning boshlaridagi bir suhbatda axiylar va axiylik harakati haqida “gullab qo'ydim”. “Ta'qib” boshlandi: “Maqola tayyormi?”, “Necha sahifa bo'ldi?”, “Qachon olaman?” va hokazo. Nihoyat, mendek behafsala odamga ham Olloh insof berib, qoralama tayyor bo'ldi. Lekin tazyiq to'xtamadi, balki ta'qibga o'tdi.

Yoz kunlarining birida bizning xonadonda marhum do'stimiz Shukur Xolmirzayev bilan qachqachlashib o'tirgan edik. Kayfiyat a'lo darajada... Banogoh darvoza taqillab qoldi.

Biz hech kimni kutmayotgan edik.

Chaqirilmagan mehmon kim bo'ldi ekan, deb eshikni ochdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, ro'paramda eski bir papkani qo'ltiqlab Mahmud turibdi.

Salom yo'q, alik yo'q — so'roq boshlandi:

— Maqola qani?

— Ha, uyga kiraylik, maqola bir gap bo'lar.

— Menga “bir gap” emas, maqola kerak.

Mojaroni eshitib Shukur ham chiqdi.

— E, do'stim Mahmudbiy, tinchlikmi? Xuddi bir paytlar papkasini qo'ltiqlab, eshikma-eshik yuradigan nalogchilarga o'xshaysiz-ku!

— Siz, Sholoxov(Shukumi shunday atar edi), kattalarning gapiga aralashmang. Qachondan beri va'dani bajarmay qochib yurasiz. Mana, endi sizning “подпольный” joylaringizdan biri fosh bo'ldi.

Maqolani qo'liga tutqazishga qasamyod qilib, uyga olib kirdik. Vajohatida zarracha o'zgarish sezilmadi. Qoralamani qo'liga olgandan keyingina dasturxonga nazar tashladi.

Ibrohim G'AFUROV,
O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi

MUSTAQIL FIKR EGASI

Mahmud Sa'diyni tanibmanki, uni mustaqil fikrli odam deb bilaman. Mustaqil odam, deb taniganman. U paytlari “Sharq yulduzi” jurnalida ishlardi. “Sharq yulduzi” jurnalida adabiy va ijtimoiy tanqid mustaqil, o'ziga xos jozibali korxona darajasiga ko'tarilib kela boshlagan edi. Bu yorqin korxonaning yuragi va aqli Mahmud Sa'diy edi.

...Mahmud Sa'diyning otlantirish odati va salohiyatiga ko'p mahal qoyil qolardim. O'sha paytdagi ko'p yaxshi, tilga tushgan maqolalar — muammolarni milliy manfaatlar va milliy nazarlar bilan yoritishga urinishlar baayni mana shu — Mahmud Sa'diyning otlantirish, ilhomlantirish, qiziqtirish san'ati hamda mahorati bois yuzaga chiqqan.

Otlantirish uchun otlangan ham bo'lish kerak. Rag'batlantirish uchun rag'batlangan bo'lish kerak. Mahmud Sa'diy tarixiy, adabiy, siyosiy ilmlarni xo'b yaxshi o'zlashtirgan, ular ichida xuddi baliqdek suzar, okean to'liqlaridan hadiksiramas va, umuman, o'zi hadiksirash nimaligini bilmas edi.

...Zamon Mahmud bilan ko'p murosqa qilishga urindi. Lekin u yana bir karra hech murosqa qilmaydigan odam bilan to'qnashgan edi. Mahmud shu murosasizligi bilan Mahmud Sa'diy bo'ldi va tanildi. Uning murosasizligi yashash uchun o'ziga yo'l qidir-di. Uning murosasizligi o'ziga tanqid maydonidan yo'l topdi.

...Mahmud Sa'diy mustaqil hayot ichiga kirib, gazeta va jurnallarda ish boshlab, o'z oldiga fikr o'tkazishni maqsad qilib qo'ydi. Millat manfaatlar va taqdiriga xizmat qiladigan fikrni u fikr deb bildi. Shunday fikr uchun u jon-jahd bilan kurashdi. Shunday fikr egalari u o'ziga maslakhod deb qaradi. Shunday fikrni tirik so'z deb har doim e'zozladi. Tirik so'zni — mustaqil so'z va fikrni u o'z ideali darajasiga ko'tardi.

...Va, shular bilan birga, Mahmud hamon noqulay odam.

Noqulay odam! Balki men qiyin odam demoqchidirman.

Noqulay deganda, uning o'ziga ham, o'zgalarga ham qulaylik izlamaganligini aytmoqchi bo'laman. Qiyin deganda, uning hech qachon oson yo'l tanlamaganligi, qidirmaganligi, xohlamaganligini nazarda tutaman.

To'g'ri yo'l — qiyin yo'l.
Haq yo'l — qiyin yo'l.

...Mahmud Sa'diy bosib o'tayotgan yo'lga qarab komil ishonch bilan aytish mumkin: mustaqil fikr egasi bo'lish hamisha olijanob, ziyoli kishilar orasida hamisha qadrlidir.

Uzoq JO'RAQULOV,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti dotsenti,
adabiyotshunos:

— Mahmud Sa'diy shoir emas, ammo u she'riyatni yaxshi biladi. Loyiq bo'lsa, bu oqimni foydali o'zanga solishga-da qurbi yetadi. Mahmud Sa'diy yozuvchi emas, lekin nasr atalmish sersalobat karvonning nima yuklab ketayotganini, qay manzil tomon yo'l tutganini yaxshi anglaydi. Uni yo'l xataridan ogoh etishni ham eplaydi. Mahmud Sa'diy tarjimon emas, biroq “Ona tilini yaxshi biladi”, degan sifat unga qarata aytilsa, bu ibora mantiqli, ma'noli jaranglaydi. Chunki Mahmud Sa'diy gap singari injiq, so'z kabi xasis, tinish belgilaridek qattiqqo'l odam.

Fiqra va fikrlar “Qadr” kitobidan
qisqartirib olindi.



Omon MUXTOR,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, adib:

— Mahmud akani talabalik yillaridan bilaman Ko'pchilik talabalar kitob qo'ltiqlab yurardi. Tabiiy hol! Ammo Mahmud akani kitobsiz yurgan holda tasavvur qilish qiyin edi. Hozir ham shunday! Balki samimiy kulib yuborarsiz, ko'cha-ko'ymi, hattoki biron to'y yoki marosimmi, kitob qo'ltiqlab kelgan kishini ko'rsangiz, bilingki, bu — Mahmud Sa'diy! Kitob — Mahmud aka vujudining “ajralmas bir bo'lagi”ga aylanib ketgan.

Mahmud aka katta ma'noda savodli olim. Sharqdan tushasizmi, G'arbdanmi, duch kelgan mavzuda suhbatlasha olasiz. Har bir so'zni dalil, isboti bilan, mantiq tarozisida tortib gapiradi. U kazo-kazo olimlarni (yashirib nima qildik, adiblarni ham) “terlatib” qo'ygan paytlarni ko'rganman. Hayotda nodonlik va bilimsizlik hech qachon bahsda aql va bilimdan g'olib kelolmaydi! Mahmud Sa'diy buni o'z misolida ko'rsatgan shaxs.

Mahkam MAHMUDOV,
adabiyotshunos, “El-yurt hurmati” ordeni sovrindori:

— Mahmud Sa'diy badiiy asarlarga gumanizm, xalqchilik, ijtimoiy hayot muammolarini haqqoniy aks ettirish mavqeyidan turib baho berardi. Umarali Normatov, Ibrohim G'afurov va kamina badiiy asarlarni hissiyot bilan o'qir edik, hayrat va hayajonimizni yashirmasdik. Mahmud Sa'diy esa jiddiy, sovuqonlik bilan o'qirdi. Bu jihatdan u Norboy Xudoyberganovga va hatto Matyoqub Qo'shjonovga ustozlik qilgani rost.

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Tarixning o'sha unutilmas damlarida sobiq sho'ro davlati jon talvasasida edi. Milliy qadriyatlar, o'zlikni anglash ehtiyoji kuchaygan damlar. Fakultet domlalaridan biri jurnalistika tarixi bo'yicha dars o'tayotib, o'zbek milliy matbuotining sarchashmasini bolsheviklarning “Iskra”siga taqaganida u bilan bahsga kirishib ketdik. Domla jadidlar burjua mafkurasini targ'ib etganligini, bu esa partiya g'oyasiga mutlaqo zid ekanligini ta'kidlab, agar uning aytganlariga qo'shilmasak, fikrimizni ilmiy dalillar bilan isbotlab berishimizni talab qildi va bahsga g'olibona yakun yasadi.

Bu bahslarning barchasi Ustozga aytilar va u ham o'z navbatida xolis maslahatini ayamadi. Mahmud akaning otlantirishi (I.G'afurov fikri) natijasi o'laroq maksimalist talaba kutubxonaga shoshdi. Chunki u bolaligida bobosidan eski alifboni o'rganish jarayonida yerto'lada saqlanadigan kitoblari orasidagi “Oyina” jurnalining ayrim sonlarini yashirincha o'qigan va bu “dono”ligi uchun gap eshitib ham olgan edi. Man qilingan narsa doim qiziqarli bo'ladi. Nima uchun dakki yeganini anglash uchun “Oyina”dagi maqolalarni “taftish” qilgani sababli

jurnaldagi ma'nili fikrlar uning yodida qolgan edi. Domlani tezroq mot etish maqsadida Markaziy kutubxonaning Nodir qo'lyozmalar bo'limidagi ba'zi eski gazeta-jurnallar varaqlandi va tezda maqola yozildi. Buning hech qanday ilmiy mavqeyi yo'qligini ta'kidlashgach, natija — beshinchi kurs oxirida Ustoz Sa'diy rahbarligida “Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik va muharrirlik faoliyati” mavzusida diplom ishi yoqlandi. Mahmud aka diplomni “yu-vish” oshida bu ilmiy ish rasman tan olinishi uchun uni nomzodlik dissertatsiyasiga aylantirish zarurligini aytdi. Gazetada ishlab, jamiyatdagi muammolarni ko'tarib chiqish jurnalistning asosiy vazifasi ekanligi, tadqiqot ishlarining o'z egalari borligi aytilib, uning taklifi rad etildi.

Qizishib ham oldik. “O'sha “ega”larining hammasi ham eski alifboni o'qiy olmaydi, qolaversa, bobolar kimligini anglab olish yo'lidagi tadqiqot gazetada dolzarb muammo ko'tarishdan kam emas”, degandi u qat'iy va biroz jahl bilan. Shunda Mahmud aka diplomning ichki muqovasiga “kelajakda og'irning ustidan, yengilning ostidan yurma”sligimni dastxat tariqasida yozib qo'ydi, bu so'zlar bobomning “Oyina”sidagi maqolalar kabi shuurimda muhrlandi... Qisqasi, nomzodlik dissertatsiyasini birinchi o'qigan ham, tadqiqot asosida yaratilgan “Ma'rifat libosidagi ozodlik” monografiyasining mas'ul muharriri ham Mahmud Sa'diy bo'ldi. Men kabi beminnat yordamni yaxshi ko'radigan e'tibortalab ilmi toliblar esa uning atrofida mo'l edi...

Ba'zi tadqiqotchilardan domlaga “e'tibor” berilmasa, ilmiy ishning holi ne kechishini eshitardik, lekin tushunishimiz qiyin kechardi: qanday yuz bilan tama qilishadi aspirantdan?! Negaki, atrofimizda Mahmud aka siymosida beg'araz, millat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan kadrlarni ko'paytirish yo'lida shogirdlar boshini silagan, tama nimaligini bilmaydigan fidoyilar bor edi baxtimizga.

Mehribonlik barobarida Ustozning shogirdlarga talabi qat'iy ekanligini aytmaslikning iloji yo'q. Avvalo, tanlagan kasbiga mehr, uning qiyinchiliklariga bardoshli bo'lish kerakligini uqtiradi.

— Har kim qandaydir bir kasbni tanlaydi. Mening tushunishimcha, odam bir kasbni egallashga kirishar ekan, uni ipidan ignasigacha bilib, shu ishning ustasi, ya'ni professional bo'lishi kerak. Agarda inson o'z sohasida professional bo'lsa, hayotda qoqilmaydi, qayerda bo'lsa ham, mehnati orqasidan ro'shnolik ko'radi, — deydi ustoz Sa'diy.

Mahmud aka shu darajaga yetishida kitobning, adabiyotning o'rni beqiyos bo'lganini muntazam takrorlab turadi.

“Kitobdan birinchi maqsad — odamni shaxs sifatida shakllantirish. Bunda biron kelib sizni kamolga yetkazmaydi. O'zingiz bajarishingiz kerak hamma ishni. O'zingiz! Navoiyning mashhur baytlaridan birini esingizga solmoqchiman:

O'z vujudingga tafakkur aylagil,

Har ne istarsen, o'zungdin istagil.

Demak, Navoiy insonning o'ziga da'vat qilyapti. Islomda juz'iy ixtiyori Xudodan, degan gap bor. Lekin bandasiga IMKONIYAT ham berilgan. Undan foydalalanish kerak. Shu imkoniyatdan foydalanib, Burhoniddin Marg'inoniy “Hidoya”ni yaratdi va risola islom olami taraqqiyotida juda katta ahamiyat kasb etdi. Bu ham bizning zaminimizda bo'ldi.

...Bobolarimiz kitoblarni o'qib, ulug' ishlar qilgan, ulug' darajaga yetgan”, deydi Ustoz.

U millat yoshlarini bobolarga munosib bo'lishga da'vat etadi. Bu faqat o'qish-izlanish bilan amalga oshishi mumkinligini ta'kidlaydi. Har bir o'zbek o'qishi kerak bo'lgan milliy va dunyo adabiyoti namunalaridan 100 tasini ajratib, ro'yxat tuzib, chop ettirdi. Kasbga oid va turli ensiklopedik mazmundagi kitoblarni o'qish zaruratini tushuntirib berdi. Kitob o'qishga, ilm olishga monelik qiladigan har qanday to'siqlarga qarshi gohida maqolalari, gohida telaradio dasturlaridagi chiqishlari orqali kurash olib bordi. Tarixni, ajdodlarni bilmaslik, qiziqmaslik holatlarini ko'rganda, millat ma'naviyatiga salbiy ta'sir etadigan ishlarini qilayotgan rahbarlarning yuziga qattiq-qattiq aytdi e'tirozlarini. O'z sohasida eplab yangi ilmiy maqola yoza olmaydigan akademig-u professorlar ustidan ochiqchasiga kuldi. Shu bois uni xushlamaydiganlar ham topiladi...

Adabiyot, adabiyotshunoslik Mahmud Sa'diy faoliyatining ajralmas qismidir. Uning adabiy-tanqidiy maqolalari va suhbatlarini o'z ichiga olgan “Teran tomirlar” kitobi haqida O'zbekiston Qahramoni, atqoli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov fikr yuritir ekan, kitobning boshqa munaqqidlar kitoblaridan bir necha xususiyatlari bilan ajralib turishini, madaniy hayotimizda o'z o'rni ega ekanligini alohida ta'kidlagandi.

Munaqqidligidan tashqari Ustozning mohir muharrirligi “Sharq yulduzi”, “Guliston” jurnallari, “O'zbekiston adabiyoti va san'ati”, “Hurriyat” gazetalarida sezilarli natijalar berganini hamkasblar ta'kidlashadi. Uning mahorati “Ma'rifat” gazetasi-ni mazmunini yaxshilashda ham ish bermoqda. Mahmud Sa'diy 1998-yildan buyon har yili uch oy davomida tahririyatning yosh jurnalistlari, jurnalistika fakultetlarining ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishga

Tarbiya — saodat

O'g'lingiz ota o'g'ilmi yoki ona o'g'il?!

Bugun bola tarbiyasi dolzarb mavzulardan. Qiz bola tarbiyasi doim e'tiboralab masala bo'lgani bois bu mavzuga ko'p murojaat qilingan. Qizlarni to'g'ri tarbiyalash haqida yozilgan kitoblari ham oz emas. Ammo o'g'il bolaning xulqi, yurish-turishi-chi? Kattalarimiz "O'g'il bola dumalab-yumalab, urishib-talashib katta bo'laveradi", deb qizlarga ko'proq e'tibor berishadi. Ammo mutaxassislar fikricha, bugungi zamonaviylashgan dunyoda o'g'il bolalarga ham alohida e'tibor, tarbiya kerak.

O'g'il bolalar tarbiyasi bilan ko'proq ota, qiz bola tarbiyasi bilan esa ona shug'ullanadi. Biroq ayrim otalarning "ko'payib ketgan ishlari" sabab, o'g'il bola tarbiyasi onalarga qolib ketmoqda... Mening vazifam farzandimni faqat moddiy jihatdan ta'minlash, qolgani onasiga havola, deya fikr bildirayotgan otalar ham uchrab turibdi.

Xo'sh, bunga siz nima deysiz? Shunday holatda ham farzandlarni yaxshi tarbiyalash mumkinmi? Insonning komil shaxs bo'lib voyaga yetishida ona tarbiyasining o'zi yetarli? Ota oilani mablag' bilan ta'minlasa bo'ldimi?

O'g'il bola — otaning o'rinbosari!

Ergash DAMINOV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bo'lim boshlig'i:

— Ayollar va erkaklar dunyoqarashi bir-biridan tubdan farqlanadi. O'g'il bola tarbiyasi bilan ko'proq ota shug'ullanishi lozim. Chunki tarbiya borasida o'g'il bolaga alohida e'tiborli bo'lish talab qilinadi. Erkak — uyning qo'rg'oni, oilaning suyangan tog'i. Oilada biror muammo bo'lsa, oila a'zolari unga suyanadi. Shuning uchun o'g'il bola tarbiyasida otaning o'rni beqiyos bo'lib, uning zimmasiga bir qancha mas'uliyat yuklanadi. O'g'il bolada erkaklikka xos jihatlari ota timsoli orqali shakllanadi. Otaning har bir xatti-harakati kelajakda farzandining oilasida ham takrorlanishi isbotlangan holat.

Onasi tarbiyalagan bola bilan ota qaramog'ida katta bo'lgan bola o'rtasida ancha farq bor. Ota bosh bo'lgan oilalarda o'g'il bola otadan hayiqadi. Mana shu narsa uni "chizilgan chiziq"dan nariga o'tishdan saqlab turadi.

O'ramizda shunday otalar ham borki, bola tarbiyasi bilan umuman shug'ullanmaydi. Hamma narsa ayolning zimmasida. Masalan, ishdan kelasolib ag'ranib yotadigan, telefon o'ynash, kino ko'rishdan bo'shamaydigan yoki kunda mast holda kelib, uyatli tomoshalar ko'rsatadigan, choyxona-yu oshxonadan beri kelmaydigan erkak o'z bolasiga nimani o'rgatadi? Bunday otalar farzandlarini jerkiydi, o'g'lining ko'nglini sindiradi, o'zidan uzoqlashtiradi... Va oqibat bunday tarbiya va muhitda ulg'aygan o'g'il ko'pincha yo qizbolafe'l, yo agressiv — o'ta qo'pol bo'ladi.

Eri bo'laturib, ro'zg'ordagi og'ir ishlarni doim o'zi bajaradigan ayolning o'g'li nimani ko'rib o'syapti, u qanday tarbiya ko'ryapti?! Derzasining singan ko'zi bir yildan beri qo'yilmayotgan, suvining jo'mragi bir yildan beri buzilib yotgan erkakning oilasida uquvli o'g'il voyaga yetadimi?!

"Ota o'rnini hech kim bosolmaydi"

Zebuniso AHMEDOVA, psixolog:

— Onaning o'zi farzandlarini moddiy tomondan ta'minlashi mumkin. Ammo ma'naviy jihatdan tarbiyalashga faqat bir o'zi o'zlik qiladi. Otaning tarbiyasi qiz bola va, ayniqsa, o'g'il bola uchun muhim. Pul yoki hamma talablarga javob bera oladigan o'quv maskani ham ota tarbiyasining o'rini bosolmaydi. Dunyo ishlari bilan ovora bo'lib, farzandlari bilan muntazam shug'ullanishdan uzoqlashgan otalarning bolalari ruhiy nuqson bilan voyaga yetadi. Ba'zida bunday bolalar uydin ketib qolishi yoki turli nopok ishlarga aralashishi mumkin.

O'g'il otadan atrofda ilgarga munosabatni, yurish-turishni, muomalani, o'zini tutishni, jamiyatga, tabiatga munosabatni o'rganadi. Undan o'mak oladi. Ota farzandi oldida o'z aql-zakovati, muomalasi, kiyinishi, shirins'o'zligi, qat'iyatligi, yolg'on gapirmasligi, mehnatsevarligi, oila yuritishda adolatparvarligi, o'z oilasiga sodiqligi, ayoliga muhabbati, ro'zg'or yuritishda mahorati bilan namuna bo'lmog'i zarur.

O'g'il bola tarbiyasida otaning eng muhim vazifalaridan yana biri uni oilaga tayyorlashdir. Ayrim otalar erkak ko'chaning odami, unga hunar o'rgatish kerak, deb o'ylaydi va unga ishlashnigina o'rgatadi, xolos. Bola yaxshi o'qib, durustgina kasb egasi bo'lishi mumkin. Lekin bu oilani ham bemalol uddalay oladi, degani emas. Oilani boshqarishga qodir yoki qodir emasligi esa u oila qurib, biror muammo chiqqandan so'nggina bilinadi. Oilani mustaqil boshqarolmayotgan, moddiy va ma'naviy jihatdan to'liq ta'minlay olmayotgan yigit esa bu yukdan tezroq voz kechishi yo'llarini izlay boshlaydi. Natijada yana bir dolzarb muammo — erta ajrim holati sodir bo'ladi.

Bolaning otasi o'z rafiqasiga qanday munosabatda bo'lsa, o'g'il ham katta bo'lib, o'z rafiqasiga shunday munosabatda bo'ladi. Agar oilada er ayolini hurmatlasa, boshqalar oldida kamsitmasa yoki haqoratlamasa, bu oilada tarbiya topgan yigit ham oila qurganida xuddi otasi kabi bo'ladi.

Bolaga qattiqqo'l, ammo mehribon bo'ling!

Saodat IBROHIMOVA, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi:

— O'g'il bolaga biroz qattiqqo'l bo'lish kerak. Ona o'g'lga qattiqqo'llik bilan tarbiya berolmaydi. U bolasiga mehribonlik ko'rsatishi tabiiy. Chunki u nuridiydasini to'qqiz oy bag'rida, ikki yil qo'lda, bir umr qalbidan ko'tarib yuradi. Shu jihatdan qaraganda

otaning qattiqqo'lligi bola uchun nihoyatda kerak. Ma'lumotlarga qaraganda, farzandlarning 90 foizi otasining jahli chiqishidan xavotirga tushib, ayb ish qilmaslikka intilarkan.

Ota oilada qattiqqo'l, va shu bilan birga, o'g'lga do'st bo'la olishi zarur. O'g'li bilan do'stona muloqot uchun iloji boricha ko'proq vaqt ajratishi, birga sport bilan shug'ullanishi, sayrga chiqishi, kitob o'qishi, film ko'rishi lozim. Otasi bilan ko'p vaqt o'tkazgan o'g'illar qat'iyatli, irodali, mas'uliyatli va rahbarlik qobiliyatiga ega bo'lib ulg'ayadi. Bola otasi bilan birga bozor-o'char qilsa, hayotiy zaruratlar va pulga munosabatni asta-sekin anglaydi.

Ota bolasini sport bilan shug'ullanishga, g'alabaga undashi, musobaqa jarayonida o'g'lga kuch bag'ishlab turishi, g'olib bo'lgach, u bilan faxrlanayotganini bildirga olishi kerak. "Mashg'ulot pulini to'lab qo'rganman, turnirlar uchun trener bosh qotirsin", demasligi kerak. Ortida qo'llaydigan otasi borligini his qilgan bola musobaqada yaxshi natija ko'rsatish uchun yana ham faolroq harakat qiladi. Ko'p otalar o'g'il farzand oldida hissiyotini yengadi, yanayam yaxshi bo'lsin, deb hadeb maqtayvermaydi. Lekin, unutmang, har qanday bola mehr va e'tiborga muhtoj.

O'g'il o'stirayotgan ota-onalarga eslatma:

— Xonadonda o'g'il bolalar uchun qat'iy intizom o'rnatish, doimiy rioya etiladigan kun tartibi tuzish. Unda dars qilish, ovqatlanish, dam olish, ko'ngilochar mashg'ulotlar, sport bilan shug'ullanish — bari taqsimlangan soatlarda jam bo'lsin;

— qattiqqo'llikka me'yorni unutmang. Qizlaringizni avaylab, o'g'illaringizga o'ta qattiqqo'l bo'lmang! Aks holda tug'ishganlar orasida ko'rinmas adovatni yuzaga keltirishning mumkin;

— mustaqillik o'g'il bolalar uchun juda kerak. O'g'lingizga kiyim-kechak va boshqa kerakli narsalar sotib olishga to'g'ri kelsa, o'zidan taklif so'rang, qaror qabul qilishga qo'yib bering;

— maqtoov — eng yaxshi motivatsiya. Minnatdorlik eshitish farzandingizni yangi tashabbuslar sari undaydi. Doim o'g'lingizga "Sen — mening faxrimsan. Eng aqlli va kuchli bolasan", deb takrorlashdan charchamang;

— o'g'lingiz bilan do'stlashing. Undan maslahatlar oling, dardlashing. U ham sizga maslahat solib, ko'nglidagilarni to'kib solganida sabr bilan tinglang;

— kichik paytidanoq har bir aytgan so'zida turishni o'rgating. Qo'ldan keladigan ishni bajarishga so'z berib, so'zining ustidan chiqish qanchalik muhimligini va buning ijobiy natijasini do'stona munosabatda tushuntiring;

— "Odami bo'lmasan", "Qo'lingdan kelmaydi", "Qiz bolaga o'xshab ish qilasan" kabi muomaladan qoching. Unutmang, harakatlaringiz u yoqda tursin, hattoki o'ylaringiz ham hayotda amalga oshib qolishi hech gap emas. Shunday ekan, niyatingiz toza bo'lsin!

Kamola AHMEDOVA
tayyorladi.

Kutubxonalar adabiyotlar bilan ta'minlanmoqda

Quyichirchiq tuman axborot-resurs markazida besh tashabbus doirasida tadbir bo'lib o'tdi.

Tumandagi 24-maktabning 6-sinf o'quvchisi Zarina Murodova, 33-maktabning 5-sinf o'quvchisi Durdona Yo'ldosheva, 10-maktab o'quvchisi Zar-

nigor Bakirovaning she'riy mashqlari qatnashchilarda katta taassurot qoldirdi.

— Toshkent viloyat axborot-

kutubxona markazi joylardagi kutubxonalarining badiiy adabiyotlar bilan ta'minlanish darajasini o'rganib chiqmoqda, — deydi axborot-kutubxona markazi bo'lim mudiri Dilfuza Tursimatova. — Chekka hududlardagi kutubxonalarda adabiyotlar kamligini

hisobga olib, ko'chma kutubxonalar tashkil etyapmiz. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktab o'quvchilari uchun rus tilidagi adabiyotlar ham yetkazib berilmoqda. Tumanning Beruniy mahallasida besh tashabbus doirasida "Xalq kutubxonasi" ochilishi ham ko'zda tutilgan.

Tadbir davomida mehmonlar tuman axborot-resurs markazi faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Xolida EGAMBERDIYEVA

Bizga yosh navoiyshunoslar kerak

Buyuk Navoiy dahosining beqiyosligi hammamizga ma'lum. Butun dunyo uning boy asarlarini e'tirof etib, tadqiq qilmoqda, o'rganmoqda. Biz — buyuk mutafakkir vorislari — bugun ham Navoiy ijodiga hali ochilmagan qo'riq sifatida qarab, har satrini to'g'ri va aniq mushohada etishga intilsak, sira xato emas. Chunki Navoiy yaratgan asarlar mohiyatini to'la anglab yetganlikni hech kim hech vaqt da'vo qilolmaydi. Biz mutafakkirning har bir asarini o'rganib, u qanday maqsadga qaratilganini yangicha nigoh bilan tadqiq etib, farzandlarimizga va dunyoga bildirishga harakat qilishimiz lozim.

Hazrat Alisher Navoiy, qolaversa, mumtoz adabiyotimizning betakror xazinalarini o'rganish borasidagi yutuqlarimiz, bu yo'lda mehnat qilgan falon-falon olimlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Biroq o'qinchi bilan ta'kidlaymizki, bizda mumtoz adabiyotni o'rganish “yomon emas”, xolos. Holbuki, biz dunyolarga kitob yozgan buyuk ajdodlar vorislarimiz. G'ururimiz ham vorisligimizni ta'kidlash bilan cheklanib borayotir. Sababi, ma'naviy merosimizni yotakli o'rganishni uddalolmayapmiz yoki o'rganganlarimizni kelgusi avlodga to'g'ri yetkazolmayapmiz.

Fan, aslida, tadqiqotlarni tadqiq va tahqiq qilish bilangina mukammallashadi. Bizda mumtoz adabiyotimiz namunalari borasidagi sharhlar, tabdillar, tadqiqotlarning nechog'lik to'g'riligi tahlili masalalari oqsab qolmoqda. Chunki olimlarning muayyan tadqiqotni ilimga ma'lum qilishdan avval uning nechog'lik haqiqatga yaqinligi ustida bosh qotirishdan ko'ra, tezroq fan olamida o'z o'rmini egallashga urinishi birinchi o'rinda chiqib ketayotir. Soha olimlari o'rtasida hamkorlikda ishlash tushunchasi yo'q. Butun mamlakat uchun ma'lum ilm, biror ma'lumotning yagona ko'rinishini taqdim etmaslik, har kim o'z qarashlari doirasida harakatlanib, o'z ilmini yaratishga va o'z martabasi yo'lda yuqoriga intilishga urinishi natijasida bir ma'lumotning turlicha ko'rinishlari kitoblardan o'rin olgan. Mumtoz asarlar tahlilini qo'ya turaylik, sanalardagi xilma-xilliklarning o'ziyoq ma'lumotlar, yondashishlar turligini, yuzakligidan dalolat beradi. Birgina sanalar masalasini — mumtoz adabiyotimiz namoyandalari hayoti, ular yashagan davrlar to'g'risidagi ma'lumotlarni olaylik. Bizda Lutfiy, Haydar Xorazmiy, Mashrab, Furqat, Uvaysiy, Ahmad Yassaviy kabi ko'plab shoiralar hayoti va ijodi to'g'risida turli manbalar va ularga tayanuvchi darsliklarda turlicha ma'lumotlar o'rganib kelinmoqda. Tadqiqotlar yangilanganidan so'ng nisbatan to'g'ri deb tan olingan bo'lsa, qabul qilinishi, darslik va qo'llanmalarga kiritilishi, xilma-xillikni keltirib chiqarayotgan boshqa ma'lumotlardan esa voz kechilishi lozim emasmi?

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning asarlari to'g'risida bir-biridan farqli sharhlar e'lon qilingan va qilingmoqda. Ayni bir g'azalning turlicha anglanishi va sharhlanishi mazmunning chuqurligi hamda Alisher Navoiy dahosining buyukligidandir. Lekin bir lirik asar bilan bir necha mazmun ifodalangan

bo'lishi mumkinligini anglatib turadigan jamlanma ma'lumotlar taqdim etilmasligi achinarli. Har bir tadqiqotchi o'z qarashlariniga to'g'ri deb o'ylasa, alohida taqdim etsa, asar mohiyati to'la ochilmagan holda kitobxonga yetkaziladi. Natijada fandagi noaniqliklar tufayli o'quvchida ishonchsizlik paydo bo'ladi.

Hatto yaqin o'tgan asrda yashagan, ne-ne hujjatlar asosida sudlanib, qatag'on qilingan qalam ahli to'g'risida ham turli-tuman ma'lumotlar darsliklardan o'rin olgan.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2019-yili amalga oshiriladigan ishlari rejasini tuzilar ekan, ko'plab manbalarda tug'ilgan yili 1869-yil deb ko'rsatilgan qatag'on qurboni, shoir Muhammadsharif So'fizodaning 150 yilligini nishonlash ko'zda tutildi. Biroq ayrim manbalarda shoir tavallud sanasi 1880-yil deb ham ko'rsatiladi (“O'zbek adiblari”, 2013, Toshkent). Istagan vaqtda bir mavzu bo'yicha o'nlab ma'lumotlarni topish mumkin bo'lgan internet tarmoqlarida ham shunday ikki xillik mavud. Ayni zarurat paydo bo'lganda qaysi ma'lumot to'g'ri ekanligi ustida tortishuvlar yuzaga keldi. Masalaga oydinlik kiritish uchun shu soha bo'yicha tadqiqot olib borgan katta olimga murojaat qilindi. 2018-yil oxirida ushbu ma'lumotlarni qayta o'rgangan mutaxassis So'fizoda tavallud sanasi 1870-yil ekan degan oxirgi xulosani matbuot orqali e'lon qildi. Ma'lumot nechog'lik to'g'ri, bunisi hali ham noma'lum. Lekin hozirgacha nega bunday muhim ma'lumotlar tadqiq etilmagani, nega turlicha ma'lumotlar bilan ish ko'rilganiga befarq bo'lingani tushunarsiz. Qolaversa, birgina olim ma'lum soha haqiqati uchun izlangan, ishlagan, o'z ilmiy mushohadasini e'lon qilgan ekan, bu tadqiqotlarni davom ettirish, ayni tadqiqotlar ustida ishlash, bunga yosh shogirdlar, izlanuvchan va ilmiy navqiron olimlarni jalb etish mumkin emasmi? Balki biz fanda to'g'ri deb o'rganib yurgan ma'lumotlarning aniqligiga har doim oydinlik kiritib borish lozimdir.

Bu kabi yuzlab misollarni keltirish mumkin.

Alisher Navoiy asarlari matnini kerak bo'lganda osongina internetdan ko'chirib olishimiz mumkin. Taassufki, “Ziyonet” va boshqa tarmoqlarda ham buyuk mutafakkir asarlarining har sahifasida o'nlab xatolarga ko'z tushadi. Adabiyotshunoslikka oid ma'lumotlar ham ko'plab xatoliklar bilan butun

respublikaga taqdim etilish hollari mavjudligi bag'oyat og'riqlidir. 9-sinf adabiyot darsligida ham Alisher Navoiy ijodini o'rganishga ajratilgan sahifalar ahvoli yomon.

**“Gar nuktalari olamni tutti
G'avg'olari ins-u jonni tutti.
Chun forsiy erdi nuka shavqi,
Ozroq edi andi turk zavqi”.**

(9-sinf adabiyot darsligi, T., 2014, 60-bet).

Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni xotimasidan olingan bu parchada, aslida, olam so'zi o'rinda “jahon” so'zi bo'lgan. Uning nima uchun “olam” tarzida o'quvchilarga havola etilgani tushunarsiz. Bu so'z vaznga ham, qofiyaga ham mos kelmaydi. Shu baytdagi “anda” so'zi ham “andi” tarzida xato yozilgan. Darslik tuzuvchilar aslida tayyor materiallarni ko'chirib dastur bo'yicha tizimga soladilar. Ulardan ijodkorlar asarlarini, ayniqsa, Hazrat Navoiy satrlarini to'g'ri ko'chirishlarini qat'iy talab qilish lozim ko'rinadi.

She'r san'atlari she'r ilmining go'zalligini ta'min etuvchi unsur sifatida go'yat qiziqarli va o'quvchilar e'tiborini tortadigan ilmdir. Afsuski, mazkur darslikning 105-betida keltirilgan quyidagi matn adabiyotshunoslarning obro'sini yaxshigina to'kib yuboradi:

“Bobur seni chun yor dedi, yorlig' etgil,

Olamda kishiga yo'q esa yortopilmas.

Ya'ni, men seni yor deb tanladim, sen ham menga yorlik qilgin (meni yor deb bilgin), bu olamda kishining yor deb bilgani uni ham yor deb bilmas ekan, uning uchun ishonadigan, suyanadigan boshqa yor (do'st, mahram, sirdosh) topilmaydi. “Yorlig'” so'zida istiora bor. Istiora — so'zni takror ishlatmay bir o'rinda ikki ma'noda qo'llash. “Yorlig'” yorlik (yor bo'lish) va xushxabar ma'nolarini beradi. Tahlilda bu ikki ma'noni olib, alohida ikki ma'no chiqarish mumkin. 1) Bobur seni yor dedi, sen ham yorlik qil; 2) Bobur seni yor dedi, sen ham uni xushxabar bilan sevintir”.

Aslida, so'zni takror ishlatmay ikki ma'noda qo'llash iychom san'atiga asos bo'ladi. Buni esa darslikdan foydalana-yotgan oliy ma'lumotli o'qituvchi-mutaxassislar yaxshi biladi.

Darsliklarimiz og'riqli xatolar bilan to'lib-toshgan. Ekspert o'qituvchilarning aytishlaricha, bu haqda mualliflarni ogohlantirmoqchi bo'lganlarida, ulardan biri “Men olimman, mening darajamga yetmay turib men bilan tortishma”, degan da'volarga borgan. “Bu yil darslikni yangiladik, xatolarni olib tashladik, ko'rmingmi?”, deyishlari mumkin. Biroq kitob ko'p yillar yoshlarni o'qitishda asos bo'ldi.

Adabiyotshunos Nusratilla Jumaxo'ja maktab o'quvchilariga aniq yoki bir xil ma'lumotlarni uzatish lozimligi, fandagi mavhumliklarni darslikka kiritish noo'rirligi haqida kuyunib gapirar ekan,

jumladan, shunday deydi: “Mana, yana shunday ortiqcha ma'lumotlardan biri: “...Mutaxassislargagina yaxshi tanish bo'lgan “Mabdayi nur”, “Kimyo” kabi badiiy-falsafiy, diniy-axloqiy asarlar ham Mashrab qalamiga mansub deb qaraladi” (114-bet). O'tgan davrda bu asarlar Mashrab nomidan nashr etildi. Mazkur asarlarning muallifi masalasida matbuotda bahs-munozaralar bo'lib o'tdi. Mashrabning ushbu asarlarga muallifligi shubha ostida turibdi. Bu vaziyatda yuqoridagi ma'lumotga ham munosabat o'zgaradi. Shundan tegishli xulosa chiqarib, ma'lumotni darslikning yangi nashrlaridan olib qolish kerak edi. Bu ortiqcha ma'lumot yetmaganiday, “Savol va topshiriqlar” qismida quyidagicha savol ham turibdi: “Mabdayi nur”, “Kimyo” kabi badiiy-falsafiy, badiiy-axloqiy asarlarning muallifi kim?”. Ushbu savolga ilm-fan namoyandalari javob berolmayaptirlarku, maktab o'quvchisi qanday javob bersin? Mubolag'asiz, bu savolga hozirgi sharoitda nainki O'zbekistonda, balki butun dunyoda hech kim javob bera olmaydi”.

Aslida, adabiyotshunosligimizda juda katta ilmiy salohiyatga ega olimlarimiz talaygina. Ularning ko'pchiligi darslik yozishga o'zlarini urmaydilar. Balki, ular bir-ikki sohaning chuqur bilimdoni bo'lganlaridan fanning barcha sohasini qamrab olishga ko'zlari yetmas, butun respublika darsligi mas'uliyati zalvorli bo'lib, fanning boshqa soha va mavzulari ustida ishlamay turib ularga oid maqolalar darslikda e'lon qilishga o'zlarini ma'naviy haqi yo'q deb hisoblashar. Ma'naviy haq tushunchasini hozirgi mualliflar ham anglaganlarida adabiyot darsligining tegishli qismlarini tegishli olimlar yaratishi kerakligi to'g'risida takliflar bilan chiqqan, sohalarni o'z mutaxassislariga qo'yib bergan bo'larmidilar. Agar bu mumkin bo'lmasa, darsliklar ustida jiddiy ishlagan va hech kamchiliksiz xalqqa taqdim etgan bo'larmidilar?..

Bugun Alisher Navoiy asarlarining hozirgi yozuvlarimizga o'g'irilgan va biz to'g'ri deb bilayotgan matnlarini ham jiddiy qayta ko'rib chiqish lozim ko'rinadi. Bu yondashuv, shubhasiz, arab yozuvi asosidagi eski o'zbek alifbosida yaratilgan barcha ma'naviy merosimiz manbalariga ham tegishli. Qo'lyozma manbalar, asl nusxalar kun sayin tuproq rangiga qaytib, ularni o'qish murakkablashayotganini hammamiz bilamiz. Lekin tezroq harakat qilib, matnlarni to'g'ri o'qib, to'g'ri tadqiq etmasak, ustoz Abdulla Qodiriy aytganidek, “bu ishning la'nati bizning bo'ynimizga tushgay”. Hammasini risolaga keltirish esa o'zimizga bog'liq. Matnshunoslik, manbashunoslikning yangicha asoslarini yaratishga sa'y qilishimizga to'g'ri keladi.


Ma'mura ZOHIDOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
o'quv-metodika va harbiy vatanparvarlik
bo'limi bosh mutaxassisi

TUXUM SALOMATLIK UCHUN XAVFLI(MI)?

Amerikalik olimlar uzoq yillik kuzatuvlardan so'ng tuxumni tez-tez iste'mol qilish yurak-qon tomir kasalliklarini rivojlantirishi va barvaqt o'lim xavfini oshirishini aniqladi. Qiziqarli tadqiqot natijalari "MedicalXpress" da e'lon qilindi.

31 yil davomida 30 ming kishining hayot tarzini kuzatib, tahlil qilgan mutaxassislar har kuni qo'shimcha tarzda 300 milligramm xolesterin iste'mol qilish yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanishini 17 foiz, erta o'lim xavfini esa 18 foizga oshiradi, degan xulosaga keldi. Ular bir dona tuxum tarkibida taxminan 200 milligramm xolesterin moddasi borligini qo'shimcha qildi.

Ammo tuxum inson organizmi, xususan, ko'z va suyaklar uchun foydali ekanini yaxshi bilgan olimlar ushbu mahsulotdan butunlay voz kechmaslik lozimligini ta'kidlaydi. Ular shunchaki har kuni ikki yoki uch dona tuxumdan tayyorlanadigan odatiy quymoqdan voz kechishni tavsiya etmoqda. Ushbu mahsulot salomatlikka zarar emas, foyda keltirishi uchun undan haftada bir necha dona iste'mol qilish yetarli.



SUZUVCHILARNING KAMYOB TURI

Xitoylik bir guruh olimlar Xaynan orolining janubiy qismidan kit va delfinlarning noyob turlarini topishga muvaffaq bo'ldi. "Sinxua" axborot agentligining xabar berishicha, ular may oyida Janubiy Xitoy dengiziga amalga oshirilgan 14 kunlik ilmiy ekspeditsiya davomida aniqlangan.

Xaynan oroli qirg'oqlari bo'ylab uzunligi 40, kengligi 200 km.gacha cho'zilgan hududni o'rgangan tadqiqotchilar guruhi yaqinda bolalagan bir necha urg'ochi kashalot (tishi o'tkir yirtqich kit) hamda kamyo bo'yli delfinlarni tabiiy

sharoitda kuzatishga muvaffaq bo'ldi. Kutilmagan uchrashuv bu joy ushbu sutemizuvchilarning yashash hududlaridan biri ekanini tasdiqlaydi.

Olimlar ekspeditsiya jarayonida kitlarning 27 guruhi aniqlanganini ma'lum qildi. Ular orasidagi kit va delfinlarning yetti turi haqida ma'lumotlar bor, ammo qolgan ikki turi hozircha olimlar uchun notanishligicha qolmoqda.

Tadqiqotchilar fikricha, Janubiy Xitoy dengizidagi kitlarning bu qadar xilma-xilligi ularni o'rganish va himoya qilishda muhim o'rin tutadi.



Iroda TOSHMATOVA tayyorladi.

Fuqaro nega pora berishga urinadi?

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan Korruptsiyaga qarshi konvensiyada "korruptsiya" atamasiga shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish, deya ta'rif berilgan. Mazkur qoida O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunida ham o'z ifodasini topgan.

Korruptsiya salbiy ijtimoiy hodisa hisoblanadi, jamiyatimizda u bilan bog'liq bir qancha illatlar hali-hamon mavjud va bu vaqti-vaqti bilan ko'zga tashlanmoqda. Garchi unga qarshi kurash har qachongidan ham kuchaygan, fuqarolarda korruptsiyaga qarshi murossasizlik o'tgan yillarga nisbatan ancha oshgan bo'lsa ham negadir shu kabi holatlar baribir uchramoqda. Misol uchun, qoidani buzgan haydovchi uni to'xtatgan yo'l-patrul xizmati xodimining qo'lga pul tutqazadi. Evaziga ma'muriy bayonnoma tuzilmaydi yoki haydovchi yengilroq jrima bilan qutuladi.

Biz ham ko'rikdan o'tkazgan shifokorga qo'l haqi berishni unutmamiz. U ham bizga qaysi dorixonada retseptdagi dorilar borligini, boshqa dorixonadan u yozib bergan dorilarni topish biroz qiyin bo'lishini aytishni unutmamiz. Basharti og'irrok kasal bo'lib qolsak bormi, shifokordan oddiy hamshiragacha "rozi qilish"ga to'g'ri keladi. O'g'limizning o'qituvchisi o'quvchilar kiyimini ilish uchun sinfonaga shkak zarurligini bildirib, pul yig'ish lozimligini aytadi. Xalqimiz bolajon, albatta, bu jamiyatda insonlar o'rtasida vujudga keladigan korruptsiogen holatlarga misollar, xolos. Jinoiyatchi unga nisbatan jinoiyat ishi qo'zg'atish to'g'risida qaror chiqarmasligi uchun tergovchi yoki

prokurorni "sotib olish"ga harakat qiladi. Birovdan olgan harom pulini yana birovga tiqishtirmoqchi, bu ham yetmagandek, shuning evaziga qonun bilan belgilangan javobgarlikdan qutulib qolmoqchi bo'ladi.

Bir kuni tanishimning ishi tuman IIB migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limi(avvalgi pasport bo'limi)ga tushibdi. Binoda tumonat odam. Birov-birovni tanimasmish. Ishni bitirish uchun bir necha xona oldida navbatda turish kerak ekan. Tanish-bilishi bor olg'irlar shu zahotiyoq navbatga turmasdan ishlarini hal qilibdi. Eng qizig'i, ularni ichkaridagi xodimlarning o'zlari chaqirib olibdi. Tanishim u yerdan chiqib notarial arxivga boribdi. U yerda ham xuddi shunday holatga guvoh bo'libdi.

Ko'p vaqt yo'qotsa ham o'sha kuni ishini bitiribdi. Ertasi kuni yo'lda bir tanishini uchratib qoladi. Gapdan gap chiqib, unga kuni kecha bo'lgan voqealarni aytib beradi. U esa: "Shuncha ovora bo'lishing shartmide? Ana, narigi ko'chada falonchi aka yashaydi. U yerdagilarning barchasi bilan munosabati yaxshi. "Soqqa"sini bersang, istagan ishingni besh qiladi?" degan javobni beradi. Demak, jamiyatda korruptsiyaviy holatdan foydalanib qoluvchi vositachilar, olg'irlar paydo bo'lib ulgurgan. Bu esa ham davlat, ham jamiyat uchun zararlidir.

Korruptsiyaga yetaklaydigan sabablarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Huquq tizimida huquqiy bo'shliqlarning mavjudligi, turli byurokratik

rasmiyatchiliklarning amaldaligi, qonun hujjatlarini turlicha talqin qilish mumkinligi kabi holatlar shular jumlasidandir. Shu tufayli hozir huquq sohasidagi bo'shliqlarni bartaraf etish, turlicha talqin qilish hamda korruptsiyon omillar mavjud bo'lgan qonun normalarini aniqlash, byurokratik rasmiyatchiliklarni yo'qotish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, idoraviy norma ijodkorligini bosqichma-bosqich kamaytirish va to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi qonunlarni qabul qilish ishlari olib borilmoqda, byurokratik rasmiyatchiliklarni bartaraf etish (fuqarolar belgilangan huquqqa ega bo'lishi uchun zarur bo'lgan turli ma'lumotnomalar) uchun idoralararo elektron hamkorlik tizimi yo'lga qo'yildi. "Yagona darcha" tizimi tufayli davlat organi va manfaatdor shaxs o'rtasidagi munosabatlar bevosita emas, bilvosita amalga oshirilmoqda, davlat xizmatlaridan masofadan turib foydalanish sari katta qadamlar tashlanmoqda. Bu esa tamagirik tufayli fuqaroning ishini hal qilishni chetga suradigan, uni soatlab kuttiradigan, ataylab pora berishga majbur qiladigan vaziyatga tushiradigan ayrim davlat organlari xodimlarini o'z ishini to'g'ri, belgilangan reglamentga muvofiq bajarishga majbur qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 15-yanvarda yangi tahrirda qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonuni 5-moddasida O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari erkin ekanligi belgilangan. Shuningdek, 7-moddada O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo'l qo'yilmaydi. E'lon qilinayotgan xabarlar va materiallar oldindan kelishib olinishini, shuningdek, ularning matni o'zgartirishini yoki butunlay nashrdan olib qolinishini (efirga berilmasligini) talab qilishga hech kimning haqqi yo'qligi

aloqida ko'rsatib o'tilgan. Muhimi, OAV bunga munosib bo'lib, jamiyatdagi mavjud korruptsiyaga oid muammolar, davlat organlari ish faoliyatidagi kamchiliklar, fuqarolar tomonidan sodir etilayotgan korruptsiyaviy jinoyatlar, ularning kelib chiqishi to'g'risida fikr yuritilsalar, maqsadga muvofiq bo'lardi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining xabar berishicha, 2018-yil mobaynida fuqarolar tomonidan prokuratura organlari xodimlariga pora taklif qilinganlik holati bo'yicha 81 ta jinoiy ish qo'zg'atilgan. Bosma va elektron OAV esa bu xabarni shunchaki e'lon qilish bilan kifoyalandi. Hech bir OAV uning kelib chiqish sabablari, asosan qanday omillar bunga sabab bo'lgani bo'yicha alohida jurnalistik material e'lon qilish u yoqda tursin, o'zining munosabatini ham bildirgan olgani yo'q. Zero, bu o'rinda nega xodim pora olishni rad qiladi-yu, fuqaro unga pora berishga urinishini biroz tadqiq qilish maqsadga muvofiq bo'ldi edi.

2018-yil 12-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati subyektlari hisoblanadi. Qonunda davlat organlari va ular mansabdor shaxslarining qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat yuritishi jamoatchilik nazoratining obyekti sifatida ko'rsatilgan. Fuqarolar, ommaviy axborot vositalari korruptsiyaviy omillarga qarshi kurashishda loqaydlik qilsa, "ishim bitsa bo'ldi" qabilida yo'l tutsa, buning oqibatlari nafaqat jamiyatdagi mavjud muhitga, balki uning kelajagiga ham katta xavf soladi.

Nurbek TOSHKANOV,
Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy
siyosat tadqiqot instituti katta
maslahatchisi

Asadullayev Nurulloxon Sagdullayevichning 14.00.21 — Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston Respublikasida yashaydigan keksa va qari yoshdagi bemorlarga stomatologik yordam ko'rsatish asoslari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 24-iyul kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy. Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

Taxirova Kamolaxon Abrorovnaning 14.00.21 — Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha "O'rta og'irlikdagi tarqoq parodontitni tashxislash va davolashda zamonaviy yondashuv" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 24-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy. Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

Jurayev Sherali Sharipovichning 05.09.07 — Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Grunlti inshootlarda filtratsiya jarayonini kamaytirishda mahalliy xomashyo samaradorligini baholash" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.10.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 19-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel/faks: (71) 237-22-09, 237-54-79; e-mail: admin@itiame.uz

Mamadaliyev Aziz Yusupaliyevichning 05.08.02 — Temiryo'llar va yo'l xo'jaligi ixtisosligi bo'yicha "Asosi qumdan barpo qilingan va ko'chuvchi qum bilan ifloslangan, vibrodinamik yuklamani qabul qiluvchi temiryo'l ballast qatlamlarining yuk ko'tarish imkoniyati" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent temiryo'l muhandislari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.28.06.2018.T.73.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 29-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100167, Toshkent shahri, Odilxo'jayev ko'chasi, 1-uy. Tel/faks: (71) 299-00-01, 293-57-54; e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru

Matnazarova Mexribon Baxtiyarovnaning 13.00.07 — Ta'limda menejment ixtisosligi bo'yicha "Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Bosh ilmiy-metodik markaz huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.05.2018.Ped.68.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 25-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 6-uy. Tel/faks: (71) 227-12-52, 246-06-69; e-mail: avloniy@xtv.uz

Turayev Sirojiddin Juraqobilovichning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Dasturiy vositalar asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Kasb-hunar ta'limi tizimini innovatsion rivojlantirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017. Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 26-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy. Tel/faks: (71) 246-90-37, 227-12-88; e-mail: moqt@markaz.uz

Sayfullayeva Dilafruz Axmadovnaning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashda maxsus fanlarni innovatsion texnologiyalarni qo'llab o'qitish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Kasb-hunar ta'limi tizimini innovatsion rivojlantirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 26-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy. Tel/faks: (71) 246-90-37, 227-12-88; e-mail: moqt@markaz.uz

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Shahrisabz filiali kafedralarida mavjud quyidagi bo'sh (vakant) o'rinlarga tanlov e'lon qiladi:

"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrası bo'yicha:

- Dotsent lavozimi — 2 shtat;
- Katta o'qituvchi lavozimi — 2 shtat;
- O'qituvchi lavozimi — 3 shtat.

"Gumanitar fanlar" kafedrası bo'yicha:

- Dotsent lavozimi — 2 shtat;
 - Katta o'qituvchi lavozimi — 2 shtat;
 - O'qituvchi lavozimi — 3 shtat.
1. Bosh hisobchi — 1 shtat.
 2. Reja-moliya bo'limi boshlig'i — 1 shtat.
 3. Ishlar boshqarmasi boshlig'i — 1 shtat.

Tanlovda qatnashishni xohlovchilar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab 30 kun ichida quyidagi manzilga ariza bilan murojaat qilishlari mumkin: Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahri, Shahrisabz ko'chasi, 10-uy. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Shahrisabz filiali. Murojaat uchun telefon: (71) 276-00-96

Xalq bankining Olmazor filiali tomonidan 24/7 elektron ofislarini joriy etish uchun qurilish ishlarini amalga oshirish bo'yicha quruvchi tashkilotlar o'rtasida tanlov e'lon qilinadi:

➤ Tanlov komissiyasi ishchi organi manzili va telefoni: Aksiyadorlik tijorat Xalq banki Toshkent shahar filiali. 100024, Toshkent shahri, Shota Rustaveli ko'chasi, 9-uy. Telefon raqami: (71) 202-50-51.

➤ Tanlov o'tkazilishi shartlari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni maxsus axborot portali www.xarid.uz saytidan (lot:9050968), shuningdek, haftaning dushanba-juma kunlari soat 9:00 dan 18:00 ga qadar yuqorida ko'rsatilgan manzil va telefon raqami orqali olish mumkin.

➤ Tijorat takliflari 2019-yil 22-iyul kuni soat 15:00 ga qadar qabul qilinadi. Tijorat taklifida tanlov o'tkazish shartlarida belgilangan barcha hujjatlar bo'lishi lozim.



AT Xalq bankining Olmazor filiali

Taniqli bolqor shoiri Qaysin Quliyev (1917—1985) xalqimiz madaniy merosini, ayniqsa, Hazrat Navoiy asarlarini yuksak qadrlardi. Shu bois yurtimizga mamnuniat bilan kelardi. Ustoz adiblarimiz bilan do'st tutingandi. Asarlarimizni asliyatdan o'qish maqsadida o'zbek tilini mustaqil o'rgangandi. Uning ona tilimizda "Gul va

xanjar", "Ko'zlarini sevaman", "Hayrat" va "Mening mukofotim" kitoblari nashr etilgan. Shoir nasrdan ham barakali ijod qilgan. Uning 35 yil davomida yozgan "Qish edi..." romani jahon adabiyotining durdona asarlari qatoridan munosib o'rin egalladi. Ushbu romandan parchani e'tiboringizga havola etamiz.

Said Oqmirza kitoblari hayotini sevgandek sevar, ularni yozilgan hikmatlar va shu fikrlarni bildirgan donishmandlarni eslab, hurmat bajo etardi. Oqmirza ikki marifatarpar — buyuk shoir Azim va buyuk olim Nikolay Sidorovich Sosnovskiyning shogirdi edi. "Kitoblarni o'qimasdan yashash kun-untunlar tepadagi osmonni ko'rmaslik, ko'r bo'lish bilan baravar, — deb o'ylardi Oqmirza, — bejiz xalqimiz savodsi odamning kuzdan farqi yo'q, demaydi.

Biz uzoq vaqt ko'rladdek har joyda sarson yuridik. Yetar. Endi yulduzli osmonni va oldimizdagi yo'lni ko'rishimiz kerak. Kitoblarni o'qimasdan bunga erishib bo'lmaydi. Ularda insoniyat zakosi, Yer yuzida yashagan barcha payg'ambar va donishmandlarning yurak qo'ri, irodasi, iste'dodi, insonparvarligi, oqibatligi, mehribonligi, Prometei kabi mardligi, aql-zakovati mujassam bo'lib, o'z nuri bilan yo'limizni yoritadi. Kitoblar shunday bebaho xazina. Ular ko'zimizga nur va ongimizga shuur beradi. Yo'q, men kitoblarsiz yashay olmayman va kitoblar oldida doim bosh egaman".

yillar o'yladi. U ijod haqida o'ylaganida ajib navoga teng she'r atalmish mo'jiza insonning butun ruhiyatini, vujudini qamrab oladi, degan xulosa keldi. Intim mavzular to'loqini shoirning to'xtatishga, bo'ysundirishga, qaytarishga kuchi yetmaydi, buni Saidning o'zi ham hayot va tabiatning g'ayrioddiy hodisalariga duch kelganda necha bor his etgan. Hozir Oqmirza tog'dagi qiyalikda tosh sag'analar tomon borarkan, miyasida yashin tekkanida chaqnash yuz berdi. O'z-o'zicha shivirladi: "Tog' ham, chumolilar ham...". U bu so'zlarni bir necha bor takrorladi va tugal satr paydo bo'ldi: "Tog' ham, chumolilar ham yerda mangu bo'ladi". Saidning go'zal she'rlaridan biri shunday yaraldi va keyinchalik tog'liklar o'rtaida mashhur bo'lib ketdi. Tog'larga qarab yaralgan satrning davomi qanday bo'lishi kerak? Bu savolni Said o'ziga o'zi berdi va darhol javob qaytardi: "Barcha she'rlar kabi Hayot va O'lim haqida".

Said Oqmirza salobati tog'larga qarab, toshda uzoq o'tirdi. Mo'viy osmonga, yam-yashil maysa-

shunday bo'lgandir. Men dunyoning paydo bo'lishini o'qib-o'rganganidan keyin shu fikrdan voz kechganimdan afsuslanaman. Kim biladi? Dunyo mo'jizalarga to'la, har bir odamning o'zi mo'jiza va qoldirgan qo'lyozmalar, yodgorliklar ham mo'jiza. Lekin inson o'ziga, yordamga muhtoj, istagan narsa uni sindirishi va gulxanga tashlashi mumkin degan bo'ltonga ishonirishga uringanlar. Ular mehnat, kashtar inrosadini, ustalar mahoratini, donishmandlar matonati qanchalik yerga urishga urinmasinlar, buni hech uddalay olmadilar. Insoniyat qancha shafqatsizlik, kamitish, haqsizliklarni ko'rmasin, buyuk she'riyat, musiqa, umrbog'i madaniy va moddiy boyliklar ijodkori va bunyodkori bo'lib qolaverdi.

Ha, ularni bu dunyoga bir lahza-ga kelib ketgan yuksak iqtidor egalari

*Qaysin QULIYEV,
bolqor adibi*

Said Oqmirza

("Qish edi..." romanidan parcha)

U jahon tarixi va adabiyotini yaxshi bilardi, ko'p o'qirdi, nafaqat Sharq va G'arb buyuk adiblarining asarlarini, bir necha tilni bilgani uchun so'z san'atkorlari hayoti va taqdiri haqida-gi risolalarni mutolaa qilib xayolga to'lardi. "Uzoqqa borib nima qilamiz? — derdi o'ziga o'zi shunday xayol surayotganida. — Mening ikki sevimi shoirim — Pushkin va Lermontovning hayoti qanday fojiali yakunlangan, ular adolatsiz tuzumga qarshi kurashgan. Mening ustozim Azim-chi? U tog'liklarning so'z sehrgari edi, halol yashadi, lekin hayoti og'ir va fojiali kechdi. Sharq mamlakatlarida sarson-sargardon kezdi. Shoir o'z yurtda imkoniyat bo'lmagani uchun kitoblarini begona yurtlarda chop ettirishga urindi. "Afsus, chaliklarga bosmaxona yo'q, bo'lsa o'z hikoyamni chop ettirardim..." — deb yozgandi u "Yaralangan tacha" kitobida. Barcha sevimi yozuvchi-adiblarimdan faqat Gyoteda yashashi va ijod qilishi uchun yaxshi sharoit bo'lgan. Har qalay tarjimaiyoli holida shunday yozilgan. Buyuk shoirni olimpiyachi deb atashlariga sira qo'shilmayman. Shoir olimpiyachi bo'lmaydi, ayniqsa, lirik shoir. Axir, lirik shoir xotirjam yashay olmaydi. Gyote shunday ijodkor bo'lgan".

Shoir Said Oqmirza shunday xayollar og'ushida edi. Ayni paytda o'qituvchilik qilyotgani uchun tog'lik o'quvchilarning hammasi uni tanirdi. Shu qadim tuproq, shu tog'larning viqori va go'zalligi shoirni Yer va Hayot boqiyiligi to'g'risida xayol surishga davlat etib turardi. Holbuki, Said Oqmirza ham navbati kelgan kuni hammasi bilan vidolashadi. U o'limiga yuzma-yuz borgan odamlarni ko'p ko'rgan. Bu uni doim jiddiy fikrlashga undardi. Oqmirza ham shoir she'r yozish istagi va miyasida badiiy g'oya qanday paydo bo'lishi to'g'risida uzoq

ga, shamol toshlarning o'qirlariga sochgan tuproq zarralaridan quvvat olib o'z sayotgan o'simliklarga qarash unga huzur-halovat bag'ishlar va tirik mavjudotning hayot uchun kurash borasidagi qat'iyatiga qoyil qolardi. Shunday holatlarni odamlar tog'da har kuni ko'radi, Oqmirza bolaligidan qiziquvchan bo'lgani uchun atrofini o'rab turgan tabiatdan nimadiri o'rganishga harakat qilardi. U bir zum ko'zlarini yumib, yozilajak she'rni haqida o'yladi. Keyin o'rman turdi va ikki tosh orasida o'zidan bir necha baravar og'ir yukni sudrayotgan chumolini ko'rdi. Ortidan ikkinchisi, uchinchisi, to'rtinchisi, beshinchisi... kelardi, ular chinakamiga chumolida yashashardi. Oqmirza bosh chayqab, miyig'ida kulib qo'ydi.

U xayol og'ushida ovul tomon yurdi. Tepalikdan qiyalab tushishiga to'g'ri keldi. Atrofida tosh qo'yilgan, cho'kkan qabrlarni ko'rdi. Sal narida sigir, echkilar o'tlardi, xo'tiklar va bolalar o'ynardi. "Bu dunyoda hamma narsa o'tkinchi ekaniga odamlar aybdor emas, — deya o'yladi Said. — Bu katta qiyalik qabrlarga to'la. Shu vodiya qaysi qabilalar yashagan, qaysilari kelib ketgan. Ehtimol, har qaysisi o'zining jangchilari va cho'ponlarini, go'zal ayollari va ularni vafat etgan shoirilarini qoldirgan. Qanday janglar bo'lgan, qanday kurashlar kechgan? Yaxshi va yomonlar ham, do'st va dushmanlar ham shu zaminga bosh qo'yg'an. Tog'lar ming tashvishda yurgan odamlarni ko'rdi va ularning barchasi o'tdi... Chalda yashaydigan dehqon va cho'ponlar dunyo yaratilganidan beri bu yerda chaliklar yashagan va shunday bo'lib qoladi, deya o'ylashadi. Bir parcha yerida dehqonchilik qilgan bobom ham, otam ham shu gapni takrorlardi. Soddadilligimiz qursin! Balki baxtli tasodif tufayli

amalg oshirgan!.. Baxtim shundaki, men bunday buyuk madaniyatdan xabardorman. Men Lermontov ham, Azim ham emasman, lekin odamlar meni ham shoir atashadi. Oltin yil qunt bilan o'qiddim, o'rgandim. Ko'p o'qiddim, ko'p o'yladim, fikrlashga odatlandim. Fikrlash men uchun nafas olishdagi muhim. Shu bois men ham odamlardagi ko'plab illatlarni — bir-biriga hasad, mug'ombirlik, xiyonat, yovuzlik qilishlarini o'sha uydirmachi safatobozlardan kam bilmayman. Odamlarning kamchiliklari son-sanoqsiz. Lekin bejiz aytilmagan: "Dunyoda yaxshi odamlar bor!..". Dunyoni aynan o'shalar ushlab turibdi. Yer yuzida egzulik va yovuzlik ham, poklik va nopoklik ham bor. Ular o'rtaida qirush tingan emas. Halol mehnatkashlar hamma joyda yashaydi, ular zamin uchun malham. Odamzod mashaqqatli dunyoda yashashga o'zida matonat topa oladi. Tog'lar buyukligi haqida o'ylaganimda o'z-o'zimdanda so'raganman: "Odam buyukmi?" Va o'z-o'zimga javob berganman: "Ha, buyuk!" Bu fikrimni maktabda o'quvchilarimga, davralarda ovulodoshlarimga, barcha yurtdoshlarimga takror-takror aytaman.

Hamma odamlar Suqrotday donishmand, Betxovenday daho bo'lmaydi. Buning uchun ularni ayblab bo'lmaydi. Lekin har bir odam vijdonli va mehnatsevar bo'lishga intilishi kerak. Odamlarning eng yomoni — ichiqoralar va yovuzlari. Bu fikrim hech kimni, hatto bolakayni ham ranjitmasin, afsuski, noshoqacha fikrlay olmayman. Yozishimni bilganlar menga luqma tashlashi mumkin: "Jahon adabiyoti xazinasi shunday ham boy, sening yozganlaringa muhtojlik jo'yi yo'q". Ehtimol, shundaydir. Lekin mening hayotga bog'liqlik joyim bor.



QAYSIN QULIYEV

QISH EDI...

Men oddiy odam bo'lsam ham hayotga Lev Tolstoyday, toshlar orasida ungan maysaday, o'zidan bir necha baravar katta yukni sudrab ketayotgan chumolida kerakman. Chumoli o'z ishini katta-kichikligiga qaramasdan qat'iyat bilan bajaradi. Uning uchun ishi bajarish muhim. Mavjudligining mazmun-mohiyati ham shunda. Har bir odam ana shunday ishlashi va yashashi kerak.

Afsuski, odamzod hayoti murakkab va mashaqqatli. Insoniyatning Don Kixotga muhtojligi bormidi? Agar Don Kixotlar bo'lmaganda dunyomiz tubanlashib qolardi, ko'pchilik o'g'rilarning o'g'rilik qilishiga, mug'ombirlarning aldashiga, g'iybatchilarning mish-mish tarqatishiga, zulmkorlar qabih niyatlarini amalga oshirishiga befarq qarardi. Odamlar o'zlarining buyuk quvonchi — vijdoni va madaniyatidan ajralardi. Men yozganlarim jahon she'riyatiga kerak, deb o'ylaganim uchun emas, yuragim amriga quloq solganim uchun she'r yozaman. Holatim jilg'aning oqishiga, maysaning o'sishiga, qaldirg'ochning uchishiga, chumolining yuk sudrashiga o'xshaydi. Ular boshqacha tarzda mavjud bo'lmaydi. Xuddi shunday men ham. She'riyat — mening baxtim, mening Makka-yu Madinam! Yozganlarim ona tilimiz lug'at boyligiga xizmat qilyaptimi, buni bilmayman, lekin yozmaslik mumkin bo'lmay qolgandagina yozish kerakligini juda yaxshi tushunib yetganman. Bu boradagi boshqacha fikr-mulohazalar ijodga zarar keltiradi.

Mashhur bo'laman deb, o'lib-tirilmalik, noming tilga olinmagandigan kuyunmaslik kerak. Hayotning o'zi senga kamtarin mehnatkash yoki buyuk odam taqdiridan qaysi birini berishni yaxshi biladi. Lekin unga, avvalo, kamtarin mehnatkash bo'lganining muhimroq. Masalan, Chaling xilvat darasidagi jilg'a dunyoning barcha xaritalarida ko'rsatilgan, shoiralar tomonidan kuylangan daryolar borigini bilsa ham oqishi kerak bo'lgani uchun oqaveradi. Yoki o'sha daradagi toshlar orasidan chiqqan nomsiz buloq yer yuzida cheksiz ummonlar borligiga e'tibor ham bermay, tashna odamga suvlarini tutaveradi. Buloq va jilg'a katta daryo va ummon kabi hayot uchun zarur. Xuddi shunday men ham. Lev Tolstoy o'z ishini qilgan, men ham o'z ishimni qilaman.

Har kuni o'quvchilarga inson irodasi bilan buyukligini uqtiraman. Inson irodasi tufayli qancha tubsizliklarni ortda qoldirdi, lekin u oldida ketub o'tib bo'lmaydigan tubsizlik chetlab turganini yaxshi biladi. U buni biladi, shunga qaramay mehnat qiladi, so'nggi nafasigacha o'z ishini bajaradi. Bu mardlik emasmi?! Odam bugun ota yoki onasini, akasi yoki o'g'lini dafn qiladi, ertaga yana ishini davom ettirishga o'zida kuch topadi. U qancha tahqir va kamситishlarni yengib o'tmadi. To'g'ri, hayot mashaqqatdan iborat, unda nafratni qo'zg'aydigan muhtojlik, kulfat, kasallik, keksalik, zindon, o'lim bor, lekin odamzod turmush tarzidan hafsalasi pir bo'lmay,

zimasidagi ishini qiladi va yashashda davom etadi. Har qanday vaziyatda dehqon mehnat bilan ishlov beradigan dalasiga, duradgor taxtadan yasaladigan jihozlariga, sangtarosh toshlarga, olim ilmiy g'oyalarga, shoir so'zga sadoqat bilan xizmat qiladi. Surbet tilanchilar odamlarga mehnat qolmadi, deydishdan uyulishmaydi. Mehnat ularning o'zida yo'q, odamlarda esa bor va doim bo'ladi. Umidim shulkli, insondagi odamiylikni hech kim, hech narsa yo'qota olmaydi. Hayot hammasini o'z yo'rig'iga soladi. Vaqt yurakdagi dardlarga malham bo'ladi. Lekin asorat asoratligicha, haqiqat haqiqatligicha qolaveradi...

Albatta, bu fikr-mulohazalarim odamlar haqida. Lekin odam emaslar ham kunini ko'ryapti. Odam kabi hayotda odam emaslar ham bor. Bu achchiq naqlni hayot va haqiqat bilan hazillashish mumkin emasligini bilgan donishmandlar aytishgan. Negaki hayotda bag'rikeng Don Kixot ham, yaramas Yagolar ham tirik. Ustozim Azim menga odamlardagi iroda va muhtojlarga yordam berish xislatini qadrlashini aytgandi. Men ham shunday o'ylayman. Mehribon va bag'rikeng odam bo'lish qiyin, buning xavfli, xavotirli jihatlari ham bor. Iroda va qat'iyatiz yaxshilik qilish va mehnat-shafqat ko'rsatish oson emas, bunga faqat mard odamlar qodir. Hamma zamonlarda dunyoga mehnat-shafqat yetishmagan. Bu tuyg'u dunyoda taqchil narsa. Mehnat-shafqat haqida ko'plab kitoblar yozilgan, lekin kitob boshqa, yozib boshqa. O'zim so'nggi nafasim qolguncha, mehnat-shafqat tuyg'usi bebaho me'matligini ustoz sifatida o'quvchilarimga, muallif sifatida kitobxonlarimga tushuntiraman. Pushkinning insoniyat oldidagi katta xizmati she'rlarida mazlumlariga mehnat-shafqatli bo'lishga davlat etganidir. Men ham she'riyatdagi shu boqiy mavzuga tez-tez murojaat qilib turaman. O'zi she'riyatda boqiy bo'lmagan mavzular ham bormi?

Ijod haqida gap ketganda hamma tavsif-tamoyillar shartli narsaga aylanadi. Odamzod dunyoga kelib yashar ekan, barcha haqiqat va yolg'onlarni boshdan kechirishi, his qilishi, yuradigan o'tkazishi hamda ularni o'zi uchun qaytdan kashf etishi kerak ekan. Oqmirza avlodidan bo'lgan Umarning o'g'li Said, sen ham dunyoga yashash uchun kelgansan. Lermontov va Tyutchev kitoblariga kirgan she'rlardagi mavzularda ulargacha ham ko'plab asarlar bitilgan. Shunga qaramay ular bu mavzularni qayta kashf etishdi, hech kimning xayoliga kelmagan so'zlarni aytishdi, yangilikka va haqiqatga yo'g'rilgan bebaho durdona asarlari yaratishdi. Buni faqat iste'dod egasi uddalay oladi. Yozish uchun o'tirganingda qo'rqqoqlik va kamtarlikni yig'ishtir, ularni oldingga solib uzoqroqqa hayda, o'zingga qat'iyat va jur'atni qoldir, keyin Yer yuzidagi eng buyuk shoir o'z zimmam, deb she'rlarini yoz. Boshqa vaqtlarda esa kamtarlik ayrimlas hamrohing bo'lsin. Ijodkorga kalondimog'lik va takabburlik yot narsa. "Iste'dod har doim oddiy", — derdi ustozim Azim. Uning dilbarligi shu so'zlarda mujassam.

Sen yashayotgan zaminda payg'ambarlar va donishmandlar yashab o'tishgan. Avvalo, sen ham o'zligingni, nega dunyoga kelganingni, yashashdan maqsadingni, odam va daraxtlarga qanday munosabatda bo'lishingni aniqlab olishga majbursan. Yer yuzida birinchi bo'lib olov yoqqan va non pishirgan odam kabi sen uchun bu dunyodagi hamma narsa yangi. Biror narsani anglab yetishdagi yangilik va o'ziga xos zukkolik ijodkor uchun juda kerak. Bu fazilat dunyodagi yangilanishga hamisha uyg'un bo'lishi zarur".

Asror MO'VIN tarjimai.

Qahramon Quronboyevga ochiq xat

Assalomu alaykum, Qahramon aka!
Bugun sizga ko'pchilikning ongida shakllanib qolgan "Yoshlar ittifoqining yoshlarga qanday foydasi tegyapti o'zi?" degan savolni bermoqchi emasman. Yoshlar ittifoqining obro'sini oshirishi mumkin bo'lgan bir taklif bildirmoqchiman.

Shaxmat bo'yicha bolalar va o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionatida hozirgacha 49 davlat vakillari oltin medalga sazovor bo'lgan. Italiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya kabi rivojlangan davlatlardan hali birona ham shaxmat bo'yicha jahon chempioni chiqmagan bir paytda jahon chempionlari orasida o'zbekistonlik yosh iqtidorli shaxmatchilar borligi barchamizga g'urur bag'ishlaydi: Ibrohim Hamroqulov (16 yoshgacha, 1998-yil), Nodirbek Abdusattorov (8 yoshgacha, 2012-yil) va Shamsiddin Vohidov (14 yoshgacha, 2015-yil).

Braziliyaliklar futbolida, yaponlar dzyudo, kubaliklar boksda qanchalik yetakchi bo'lsa, O'zbekiston yoshlari bugun shaxmatda jahon miqyosida shunday yetakchilar safida e'tirof etilmoqda. Shaxmatchilarimizning oxirgi uch yildagi muvaffaqiyatlariga e'tibor bering:

So'nggi uch yilda shaxmat bo'yicha Olimpiada, Jahon, Osiyo chempionati va xalqaro musobaqalarda qo'lga kiritilgan MEDALLAR SONI:

2018-yil

OLTIN	KUMUSH	BRONZA	JAMI
85	81	61	227

2017-yil

OLTIN	KUMUSH	BRONZA	JAMI
39	35	36	110


2016-yil

OLTIN	KUMUSH	BRONZA	JAMI
40	15	12	67

Hozir o'zbek shaxmati shaxmatimiz tarixida kuzatilmagan bir ko'tarilish davrida. O'tgan yili o'smirlar o'rtasida jahon shaxmat olimpiadasida g'olib chiqqan Javohir Sindorov, Nodirbek Yoqubboyev, Nodirbek Abdusattorov va Shamsiddin Vohidov yaqinda yakunlangan kattalar o'rtasida O'zbekiston chempionati oliy liga musobaqasida xuddi hozir men sanagan tartibda shohsupaning eng yuqori o'rinlarini egalladi.

Ularning izidan ham iste'dodli bolalar yetishib kelmoqda. Bu yil Malika Jumayeva (8 yoshli qizlar o'rtasida, Sirdaryo), Javohir Bozorov (8 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida, Toshkent), Afro'za Hamdamova (10 yoshli qizlar o'rtasida, Samarqand), Komron Karimov (10 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida, Samarqand), Guldona Karimova (12 yoshli qizlar o'rtasida, Samarqand), Davlatbek Mahmudjonov (12 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida, Qashqadaryo) O'zbekiston chempioni bo'lishdi. Endi ular shu yil 20-avgustdan 2-sentabrgacha 8, 10 va 12 yoshli bolalar o'rtasidagi shaxmat bo'yicha Xitoyda bo'lib o'tadigan jahon chempionatiga borishlari kerak edi. Lekin O'zbekiston shaxmat federatsiyasi mutasaddilarining ma'lum qilishicha, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi bu yil ushbu musobaqada bolalarimiz ishtirokiga pul ajratmas, Respublika shaxmat federatsiyasida esa mablag' yo'q ekan! (Shu paytgacha har yili federatsiya o'z mablag'iga jo'natar edi chempionlarni. Respublika chempionatida kuchli otilikka kirgan bolalar o'z yoki homiylar mablag'lari hisobiga borishiga ruxsat berilgan edi. Negadir bu yil federatsiya pul topolmay qolibdi!)

O'zbekiston yoshlari hali biron marta jahon



championatini o'tkazib yubormagan, masalan, qo'shni Qozog'iston terma jamoasi 50—60 shaxmatchini olib borib, medalsiz qaytganida ham o'zbek yoshlari 5-6 nafargina bo'lib borsa-da, medal bilan qaytgan vaqtlar bo'lgan!

Gapimni muxtasar qilaman: Yoshlar ittifoqi shu qorako'z farzandlarimiz uchun mablag' topib bera oladimi? Ularning ko'zlaridagi olov so'nmasligi uchun ko'mak bera olasizmi?

Agar tashkilot nizomida "Shaxmat bo'yicha bolalar va o'smirlar o'rtasida jahon chempionatida O'zbekiston terma jamoasining ishtiroki uchun mablag' ajratish", degan band yo'q bo'lsa, Nizomga qo'shimcha kiritish yoki istisno tariqasida mablag' ajratish, menimcha, qiyin emas. Axir bu yoshlar — o'zimizning yoshlarimiz, Yoshlar ittifoqi a'zolari, Vatan bayrog'ini adl ko'tarishga qodir yoshlar!

Husan KARVONLI

Sportga do'st yoshlar

Jizzax shahridagi 16-maktabda "Sport — bizning do'stimiz" shiori ostida musobaqa o'tkazildi. Unda shahardagi maktablarning sport jamoalari shaxmat, shashka, stol tennisi, voleybol (qizlar) va mini futbol bo'yicha o'zaro bellashdilar.

Besh muhim tashabbusning ikkinchi yo'nalishi — yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasidagi qobiliyatini namoyon qilishi uchun sharoit yaratish maqsadida tashkil etilgan ushbu musobaqalar haqiqiy festivalga aylandi. Mazkur fetival yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga xizmat qildi.

Bugungi kunda maktablarda sun'iy qoplamali maydonlar barpo etilayotgani yoshlar o'rtasida mini futbolning kun sayin keng quloq yozayotganiga zamin yaratyapti. Sun'iy qoplamali maydonda kechgan bellashuvlar o'quvchilarning mahorat va tajribalarini yana bir bor sinovdan o'tkazdi. Musobaqa yakunida barcha tengdoshlarini ortda qoldirgan 17-maktab mini futbolchilari 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Musobaqada Shahriyor Gulboyev, Mirsulton G'aniqulov, Hojiakbar Choriyev kabi yosh charm to'p ustalari o'z mahoratlari bilan ajralib turdi.

Voleybol bo'yicha o'tkazilgan musobaqa ham qizg'in bahslarga boy bo'ldi. 13-maktab jamoasi bu bellashuvga puxta hozirlik

ko'rgani yaqqol ko'zga tashlandi. Bu maktab jamoasining aksariyat sportchilari voleybol bo'yicha viloyat terma jamoasi a'zosi. Muqaddas Donaboyeva, Laziza Abdusattorova, Sevinch O'rolova kabi o'quvchilar O'zbekiston chempionatida ham bir necha bor qatnashgan. Ana shunday mahorat va tajribaga ega jamoa musobaqada peshqadamlilikni qo'lga kiritdi.

O'ziga xos festival tarzida o'tkazilgan sport bayrami turli yoshdagi bolalarni qamrab oldi. Arslon Ziyodullayev 17-maktabning 1-sinf o'quvchisi. U shashka musobaqasida "Eng yosh sportchi" deb e'tirof etildi. Chempionning onasi Sayyora Mamatqulova farzandining shashka to'garagida mahoratini oshirib borayotganidan xursand.

Stol tennisi bahslari ham qizg'in bellashuvlarga boy bo'ldi. Musobaqada Ravshan Hayitboyev (2-maktab o'quvchisi), Iskandar Toshmurodov (21-maktab o'quvchisi), Farrux Farmonov (23-maktab o'quvchisi) to'garakda o'rgangan mahoratlarni ko'rsatishdi va sovrindorlar qatoridan joy oldilar. Tadbirda eng iqtidorli, eng yosh, eng faol o'yinchi nominatsiyalari bo'yicha ham g'oliblar taqdirlandi.

Bellashuvlarda o'quvchilarning o'z mahoratlarni namoyish etishi uchun astoydil harakat qilganini kuzatib, bu o'g'il-qizlar sport bilan do'st tutinib, jismonan sog'lom voyaga yetayotganiga amin bo'ldik.

Abdusattor SODIQOV,
"Ma'rifat" muxbiri

Navqiron yuraklar sadosi

Ko'chaga chiqishdan oldin ko'zguga qaramaydigan odam bo'lmas kerak. Chunki u bizga barcha kamchiliklarimizni ko'rsatib beradi. Biz esa ust-boshimizni to'g'rilab, ko'nglimizni xotirjam qilib ostona hatlaymiz.

Jurnalistika sohasini ham tom ma'noda jamiyatning ko'zgusi, deb aytalimiz. Bugungi kunda jurnalistlarimiz turli muammolar, aholi murojaatlari yuzasidan faol ishlashmoqda. Ommaviy axborot vositalari xalq manfaatlarining chinakam himoyachisiga aylanib bormoqda.

Bu yo'lda yosh kadrlarni tarbiyalash, ularni sohaga to'g'ri yo'naltirish, qo'llab-quvvatlash maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu ishlarning yorqin misoli sifatida O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi tomonidan chop etilgan "Yosh yuraklar sadosi" to'plamini keltirish mumkin.

Mazkur kitobda yurtimizning ellikka yaqin yosh jurnalistlari maqolalari jamlangan bo'lib, ularda navqiron qalam ahliga xos hayotga toza nazar, odamlarning dard-u tashvishlariga hamdardlik, muammolarni kuyunchaklik bilan muhokamaga olib chiqish, ezigulik ulashish, o'z ijodiy uslubini yaratishga bo'lgan ishtiyoq-intilish ko'zga tashlanadi.

Yosh qalam sohiblarining shakllanishida muhit alohida ahamiyatga ega. Ushbu to'plamga "Ma'rifat" gazetasida faoliyat olib borayotgan uch nafar jurnalistning materiallari kiritilgan bejiz emas. "Yosh yuraklar sadosi"dan gazetamiz muxbirlari Zilola Madatova ("Muallim qadr topsa, ta'lim-tarbiya yuksaladi"), Nesibeli Mambetirzayeva ("Bu cho'llar bo'ston bo'ladi hali") hamda Charos Yoqubovanning ("Salom-alikning salmog'i") maqolalari o'rin egallagan.

Kitobni varaqlar ekansiz, "Yosh yuraklar sadosi"ni tinglagandek bo'lasiz. Har bir jurnalistik asarda mualliflarning o'ziga xos yondashuvi, tahlili, chizgilari namoyon bo'ladi.

To'plam "Ta'lim-media" nashriyotida tayyorlandi.

MUXBIRIMIZ




"Bo'ston" da ta'til to'garaklari

Bo'ka tumanida besh tashabbus bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar doirasida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida 247 ta to'garak tashkil etilib, 180 nafar xodim ish bilan ta'minlandi.



Raqs to'garagi rahbari Nazokat Abdullayeva mashg'ulot jarayonida.



"Xalq kutubxonasi" mudirasi Saodat Begaliyeva ish jarayonida.



Sitora To'ychiyeva musiqa to'garagida fortepianodan mashg'ulot o'tmoqda.

Jumladan, "Bo'ston" mahallasida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh tashabbus doirasida keng ko'lamli ishlar olib borilib, haqiqiy bo'stonga aylantirildi. Ayniqsa, qayta ta'mirdan chiqarilgan Madaniyat markazi qoshidagi musiqa, raqs, rassomchilik to'garaklari mahalla yoshlarining iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Tashabbus samarasi natijasida Madaniyat markazida san'atning turli yo'nalishlari bo'yicha 6 ta to'garak faoliyati yo'lga qo'yilib, ularga 90 nafar bola qiziqishiga qarab tanlab olindi, — deydi Madaniyat markazi direktori Abbosjon Xo'jaqulov. — O'g'il-qizlar bu to'garaklarda ham bilimini oshirib, ham yozgi ta'tilni mazmunli o'tkazmoqda.

Ma'rifat targ'ibotchisi Saodat Begaliyeva o'z uyida "Xalq kutubxonasi" tashkil etgani mahalla ahlini, ayniqsa, yoshlarni quvontirdi. Kutubxona hamisha o'quvchilar bilan gavjum.

— O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan 4000 kitob bilan ta'minlangan kutubxona mahalla ahli, ayniqsa, bilimga chanqoq yoshlarimiz uchun ma'naviyat maskaniga aylangan, — deydi mahalla oqsqoqli Abdug'afur Begmurotov. — Kutubxonada mahallamiz yoshlarining kompyuter savodxonligini oshirish va ularning internetdan samarali foydalanishi uchun kompyuter xonasi ham tashkil etilgan.

Sultonboy DEHQONOV
olgan suratlar.



3-sinf o'quvchisi Madinabonu Rahimjonova ustози Аббосжон Хо'жақулловдан дотор онаш сирларни о'рганмоқда.

Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150, V-3608. Tiraj: 12087.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Xayrullo Abdurahmonov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'ZA yakuni — 21,40 Topshirildi — 23,00

1 2 3 4 5 6